

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 338.48: 640

**ИБРАГИМОВА ДИЛРОМ АХРОРОВА**  
**МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШ**  
**СТРАТЕГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ (“Diyora” меҳмонхонаси**  
**маълумотлари асосида)**

**5A610201 – “Mehtonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish”**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** iqtisodiyot fanlari doktori,  
prof.

**Б.Ш.Сафаров**

**SAMARQAND – 2019**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1-bob. Mehmonxonalarni samarali rivojlantirishda investitsion jarayonlarning nazariy-uslubiy asoslari</b>	6
1.1. Mehmonxonalarning turlari va tasnifi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari	6
1.2. Investitsiyaning mohiyati, mazmuni va turlari	10
1.3. Investitsiyalarni joriy qilishning xorij tajribasi hamda uni mamlakatimizda tadbiq etish imkoniyatlari	20
1-bob bo'yicha xulosalar.....	26
<b>2-bob. O'zbekistonda mehmonxonalarni rivojlantirishda investitsion muhitini shakllantirish tendensiyalari</b>	28
2.1. O'zbekistonda mehmonxona sohasini rivojlanishning huquqiy asoslari	28
2.2. O'zbekiston sharoitida investitsiyalarni jalb qilishning milliy iqtisodiyotga ta'siri	36
2.3. " Jahon Ramzo" mehmonxonasining tavsifi va ko'rsatiladigan xizmat turlari.	51
2-bob bo'yicha xulosalar.....	56
<b>3-bob. Mehmonxona sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari</b>	58
3.1. Mehmonxona sohasini xorij tajribasini qo'llash orqali rivojlantirish	58
3.2. Investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari	65
3.3. " Jahon Ramzo" mehmonxonasiga investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari	69
3-bob bo'yicha xulosalar.....	73
<b>Xulosa</b> .....	77
<b>Takliflar</b> .....	80
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	82

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Turizm sohasini rivojlantirishda sezilarli darajada yaxshi samara keltirishi mumkin bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini<sup>1</sup> alohida e'tirof etib o'tish kerak. Ushbu farmon mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida joriy etildi. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, ko'plab rivojlanayotgan davlatlardan farqli o'laroq "turizm sohasiga" iqtisodiyotning strategik sektori maqomi berildi. Bu o'z navbatida turizm sohasiga e'tibor yanada kuchaytirilishining yaqqol isbotidir.

Ma'lumki, turizm sohasida mehmonxona xizmatlari alohida o'rin egallaydi. Mehmonxona xizmatlarining muhim xususiyati, ularni jamg'arish va saqlash imkoniyati yo'qligi hisoblanadi. Shunday qilib, Innovatsion boshqaruv – tashkiliy boshqaruvchilikning o'ziga xos turi bo'lib, unda innovatsion faoliyat rejasi va dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish. Mehmonxonalarda taklif etiladigan xizmatlar assortimenti va sifatini oshirish, xizmatlarning raqobatbardoshligini ta'minlash sohaning dolzarb muammolaridan biridir. Shu sababli mehmonxonalarda innovatsion boshqaruv mexanizmini takomillashtirish ahamiyati muhim va dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.** Tadqiqotning ob'ekti Samarqand shahrida joylashgan "Jahon Ramzo" mehmonxonasi hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli Farmoni

Tadqiqotning predmeti bo'lib, turizmning rivojlanishida mehmonxonalarda investetsion muhitni takomillashtirish munosabatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida mehmonxona sanoatini rivojlantirishda investetsion muhitni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar tayyorlash hisoblanadi.

Dissertatsiya ishida belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi va amalga oshirildi:

- ✓ mehmonxonalarning turlari va tasnifi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari o'rganish;
- ✓ investitsiyaning mohiyati, mazmuni va turlari tushuntirish;
- ✓ investitsiyalarni joriy qilishning xorij tajribasi hamda uni mamlakatimizda tadqiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqish;
- ✓ o'zbekistonda mehmonxona sohasini rivojlanishning huquqiy asoslari ahamyatini oshirish;
- ✓ o'zbekiston sharoitida investitsiyalarni jalb qilishning milliy iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish;
- ✓ " Jahon Ramzo" mehmonxonasining ko'rsatiladigan xizmat turlari sonini oshirish.
- ✓ mehmonxona sohasini xorij tajribasini qo'llash oqali rivojlantirish

**Ilmiy yangiligi.** Ilmiy yangiligi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehmonxona xizmatlari bozoridagi raqobat muhitida mehmonxonalarda investetsion muhitni takomillashtirish bo'yicha ilmiy uslubiy tavsiyalarda belgilanadi.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili.** Iqtisodiy adabiyotlarda mehmonxonalarda investetsion muhitni takomillashtirish bo'yicha nazariy va uslubiy muammolari o'rganilgan. Xorijiy mamlakatlardagi olimlarining ilmiy ishlarida va tadqiqotlarida turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini alohida muammolari bo'yicha nazariy va amaliy savollar o'z

aksini topgan. O‘zbekiston sharoitida turizm sohasida mehmonxonalarning rivojlanishi bo‘yicha alohida masalalari bir qator iqtisodchi olimlarimizning ilmiy ishlarida va tadqiqotlarida yoritilgan. Xususan, K.X.Abduraxmonov, M.R.Boltabayev, I.S.Tuxliyev, M.T.Alimova, E.V.Golysheva, M.Q.Pardayev, B.Sh.Safarov, Z.O.Raximov, T.Tashmurotov, N.Tuxliyev, X.M.Mamatqulov, B.X.Turayev, D.K.Usmanova, N.E.Ibadullayev, A.Eshstayev<sup>2</sup> va boshqalarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi.** Tadqiqotning usullari sifatida analiz va sintez, sotsiologik so‘rov, abstrakt mantiqiy tahlil hamda tanlab kuzatish, qiyoslash, va ekspertli baholash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishining nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar mehmonxonalarda investitsion muhitni takomillashtirishda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish evaziga mamlakatimizda mehmonxonalarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi. Ishning natijalaridan mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish, turizm yo‘nalishi bo‘yicha kadrlarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

---


<sup>2</sup> Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» Ташкент, 2013. – 248 с.; Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.SH., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2018 у; Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари // Монография. «Иқтисодиёт» нашриёти, - Тошкент, 2015 – 300-б.; Голышева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях. Дис...канд.экон.наук. – Ташкент, 2012. – 156с; Пардаев М.Қ., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. – Самарқанд: СамИСИ, 2006. – 137 б.; Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари. – Т.: Фан ва технология, 2016. – 184 б.; Рахимов З.О. Туризм дестинацияларида стратегик режалаштиришнинг ташкилий механизмини такомиллаштириш. // Дис. ...и.ф.н. – С.: 2012.; Ташмуратов Т.Т. Халқаро туризм. - Т.: Турон – Иқбол, 2007. – 320 б.; Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014. - 332 б.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 367 с.; Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: «O‘zbekiston faylafuslar jamiyati» nashriyoti, 2011.-273b; Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. – Т.: Фан, 2009. – 153 с.; Усманова Д.К. Особенности формирования туристского продукта и перспективные направления его развития. Дис...канд.экон.наук. – Самарқанд: СамИСИ, 2009. – 157 с.; Эштаев А.А. Туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси. – Т.: «Фан», 2011. – 280 б.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Magistrlik dissertatsiyasi kirish uchta bob, xulosalar, takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishda 7 ta jadvallar, 9 ta rasmlar keltirildi. Ishning hajmi 86 bet bo'lib kompyuterda sahifalandi.

# I-BOB.MEHMONXONALARNI SAMARALI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION JARAYONLARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

## 1.1.Mehmonxonalarining turlarivatasnifibo`yichao`zigaxosxususiyatlari

Mexmonxona industriyasi iqtisodiy faoliyat sifatida mexmonxona xizmatlari ko`rsatish va mexmonxona, kemping, motel va yotoqxonalarda qisqa muddatli yashashni bildiradi. Bu faoliyatga restoran xizmatlari ham kiritiladi. Shuni takidlash joizki hozirgi kunda mexmonxonalar mexmonlarning toifalariga qarab hamma xizmat turlarini ko`rsatishga qodir emaslar. Shu tufayli ular maxsus yo`nalishlari bo`yicha bir qancha turlarga bo`linadi. Bu bevosita mexmonxonalarining ixtisoslashuvini talab qiladi. Shu jixatdan olib qaraladigan bo`lsa, mexmonxonalar hozirgi kunda quyidagi turlarda bo`lishlari mumkin.



**1-rasm.Mexmonxonalarining turlari**

**Manba:** M.Q. Pardayev A.n. Xoliqulov, X.A. Raximov Mexmonxona xo`jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari. 20-bet.

Mazkur rasmda keltirilgan mexmonxonaning turlari mamlakatimizda ham mavjud. Ammo ixtisoslashgan darajasi unchalik yuqori emas. Shu tufayli ham mexmonxonalarni joylashishiga va kimlarga xizmat qilishiga qarab ixtisoslashtirish kerak. O'zbekistonda mexmonxonalar faoliyati rivojlangan xududlarga Toshkent shaxri, Samarqand va Buxoro viloyatlarini kiritish mumkin.

Butun dunyo turistik tashkiloti ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan joylashish vositalari standart klassifikatori bo'yicha, barcha joylashish vositalari jamoaviy (kollektiv) va individual qismlarga bo'linadi.

**Jamoaviy** joylashish vositalari mehmonxona tipidagi va maxsuslashtirilgan korxonalariga bo'linadi.

Jamoaviy (kollektiv) joylashish vositasi bo'lgan mehmonxona turidagilarga: mehmonxonalar, motellar, yashash mumkin bo'lgan klublar, pansionatlar, mebellashtirilgan xonalar, yotoqxonalar kiradi.

**Maxsuslashtirilgan joylashish vositalariga:** sanatoriyalar, profilaktoriyalar, dam olish uylari, turistik qo'noqlar va to'xtash joyi, turistik sport bazalari, dam olish bazalari, ovchilar (baliqchilar) uylari, kongress markazlari, kempinglar, botellar, flotellar, rotellar kiradi.

**Individual joylashish vositasiga** ijaraga beriladigan kvartiralar, kvartiralardagi xonalar, uylar, kottedjlar va boshqalar kiradi.

Mexmonxonalarining turlari borasida gap ketganda jaxon turistik tashkiloti tomonidan mexmonxonalarining tasniflash bo'yicha tasnifni inobatga olish zarur. Mazkur tashkilot mexmonxonalar bo'yicha standartni ishlab chiqdi va unga asosan mexmonxonalar quyidagi standartga ega bo'lishlari kerak.

- Minimal belgilangan miqdordan (odatda 10tadan) ko'p nomerga ega bo'lish va yagona raxbariyatga birlashish.
- Asosiy va qo'shimcha xizmatlar bo'lishi zaur.
- Xizmatlar tarkibi, jixozlanishga ko'ra mexmonxonalarini milliy standart talablari asosida sinflar va toifalarga guruhlash.

Turli adabiyotlarda mexmonxonalar turli xil mezonlar quyidagilarni kiritish mumkin:



- kamfortlilik darajasiga ko`ra
- qabul qilish xajmiga ko`ra;
- funksional maqsadiga ko`ra;
- joylashuviga ko`ra;
- xizmat ko`rsatish davomiyligigako`ra;
- ovqatlanish xizmatlari mavjudligi bo`yicha;
- mijozlarning turish davomiyligi va boshqalarga ko`ra.



### 1.2-rasm.Mexmonxonalarni tasniflash belgilari.

Ish yuzasidan kelgan mehmonlarning mehmonxonalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Joylashish shaharning markazida, administrativ, jamoaviy va boshqa markazlarga yaqin bo'lishi kerak;
2. Asosan nomerlar fondi bir kishilik bo'lishi kerak;

3. Nomerdaalbatta, yozuvstoli, ishchikreslosi, stolyoritgichi, yozuvvaorgtexnikavositalaridantarkibtopganishchizonabo'lishikerak;

4. Maksimal darajada tashqi muhitdan, ayniqsa, shovqindan izolyatsiyalangan bo'lishi kerak;

5. Mexmonxonada yig'ilish, seminar, uchrashuvlar, muzokaralar va boshqalar joylar, xonalar bo'lishi kerak;

6. Biznes-markazi;

7. Moliya ta'minoti xizmati bo'lishi kerak.

Bundan farqli, dam olishga mo'ljallangan mexmonxonalarga:

1. Shahardan uzoqroqda, tabiat qo'ynida, o'zining o'simlik dunyosining ko'm-ko'kligi bilan ajralib turadigan joyda bo'lishi;

2. Dam olish, sport bilan shug'ullanish va ko'klamzorlashtirilgan maydonlarning bo'lishi;

3. Asosan ikki kishilik nomerlar;

4. Bolalarning o'ynashi, ko'ngil ochish maydonchalari bo'lishi lozim.

Albatta, mehmonxonalarning mo'ljallanganidan kelib chiqqan holda, turli xildagi xonalar, joylar va xizmatlar tashkil etiladi.

Agar **dam olish mehmonxonalari bo'lishi uchun** tibbiy davolash, sog'lomlashtirish xonalari, ovqatlanishdagi parhez taomlarning bo'lishligi lozim bo'lsa, statsionar mehmonxonalar oilaviy dam olishga mo'ljallanadiki, unda albatta, bolalar o'yini, ularga qarab turish uchun xona bo'lishi lozim.

Xuddi shuningdek, turistik-ekskursion mehmonxonada ekskursovod, guruhni olib yuruvchi, sport instruktorlari, tur kabinet, sport inventarini ijarasi, basseyn ularning tarkibida yoki yaqinida bo'lishi kerak. O'zining maxsusligi bo'yicha bo'lingan mehmonxonalar ham hozirgi vaqtda keng foydalanib kelinmoqda. Ularga kemping, rotel, botel, flotel, yurtalari va boshqalar kiradi.

**Kemping** – bu avtoturistlar lageri bo'lib, shahardan tashqarida, yozgi uylar yoki palatkalar bilan ta'minlangan bo'ladi.

**Rotel** – ko'chma mehmonxona hisoblanib, bir yoki ikki joyli vagonlar bo'lib, kechki dam olishga mo'ljallangan bo'ladi.

*Botel* – suvda, lekin suzib-ko‘chmaydigan, ko‘p holda statsionar holga keltirilgan kemalarda tashkil topiladi.

*Flotel* – esa suzib yuruvchi mehmonxona, maxsus komfortabelli kayutano-merlari, aktiv dam olish xizmati, muzokara olib borish, konferensiya, kongress zallari, aloqa vositalari, turli barlar va restoranlardan tarkib topadi.

## **1.2. Investitsiyaning mohiyati, mazmuni va turlari;**

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tobora chuqurlashib, milliy iqtisodiyotning turli soha hamda tarmoqlarida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bunga makroiqtisodiy barqarorlik, barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va aholi turmush darajasining oshishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Bunday ijobiy o‘zgarishlarda investitsiyalarning ahamiyati kattadir. O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo‘nalishga aylandi.

Investitsiyalar tushunchasining bugungi xayotimizga keng va tez kirib kelishining o‘zi uning mohiyati va ahamiyati, zarurligini ko‘rsatib, uni ochib berishga bo‘lgan zaruriyatni keltirib chiqaradi. Bu tushuncha o‘zi bilan birga investitsiya loyihalari tushunchasi, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish, ularning texnik iqtisodiy asoslanishi va ekspertizasi, loyihaviy tahlil, loyihalarning samaradorligini baxolash va monitoringi kabi bir qator yangi ko‘plab tushuncha va iqtisodiy bilimlarni kashf etishi ularning bugungi iqtisodiy hayotimizda naqadar muhimligini anglab olishimizga sabab bo‘lmoqda.

Jahon iqtisodiyotining, shu jumladan O‘zbekiston iqtisodiyotining ham kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog‘liqligini bugungi kunda har bir bilim sohibi anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan chet el investitsiyalarini kengrok jalb etish

ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy isloxotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muxim asosiga aylanganligi bilan bog'likligini tushunib olish kiyin emas.<sup>3</sup>

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qulay investitsiya iqlimi shakllanmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy xamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi.

Investitsiyalarning mazmun-mohiyati, vazifalari, amalga oshirish shakllari vaprinsiplari xususida bir to'xtamga kelish muhim hisoblanadi. Chunki mazkur masalaga aniqlik kiritmasdan, bir to'xtamga kelmasdan va umumiy o'rinni shakllantirmasdan "investitsiya" atamasi xususida gapirishma'lum noaniqliklarni keltirib chiqaradiki, ular oxir-oqibatda noto'g'ri qarorlarqabul qilinishga olib kelinish mumkin.

Iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o'rn tutishini o'z vaqtida to'g'ri anglab yetganligi natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el investitsiyalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishi hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim.

Iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyotda "investitsiya" nisbatan aniq va keng qo'llanilayotgan atama hisoblansada, ikkinchi tomondan, uning ko'p qirraligi va ziddiyatligi nafaqat mamlakatimiz, balki xorijiy iqtisodiy adabiyotlariga ham xos.

"Investitsiya" atamasining mohiyatini aniqlashni iqtisodiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan ta'riflarni tahlil etishdan boshlash maqsadga muvofiq.

"Investitsiya" tushunchasi bir qator ma'nolarga ega bo'lib, bu qisqacha qo'yilma degan ma'noni bildiradi. Yoki buni foyda olish maqsadida aksiya, obligatsiya sotib olish, tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan real aktivlarni sotib olish va ishlab chiqarish hamda intellektual va boshqa moddiy boyliklar uchun sarflanishi tushuniladi, ya'ni investitsiyalar har qanday vosita bo'lib, pulning qiymatini saqlaydi, uning qiymatini ko'paytiradi, va ijobiy daromad olishni ta'minlaydi.

---

<sup>3</sup>Jo'raev A.S, Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B. «Investitsiya loyihalari tahlili» Toshkent «Sharq»2007-52b

Iqtisodiy lugʻatda “Investitsiyalar - kapitalni uzoq muddatli qoʻyilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xoʻjaligiga, transportga va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yigʻindisini aks ettiradi”<sup>4</sup>, - deb taʼriflangan.

Investitsiya<sup>5</sup> (lot. investio – oʻrash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida oʻz mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qoʻyish)dir. Anʼanaviy tarzda investitsiya deganda kelgusida koʻzda tutilgan daromadlarni olish maqsadida hozirda aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish tushuniladi. Investitsiya mohiyatini tavsiflashdagi bunday yondashuvga milliy, shu bilan birga, xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda birlamchi eʼtibor beriladi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2014-yil 29-oktyabrdagi “Investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunining yangi tahririda investitsiyalarning mazmuni “Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy neʼmatlar hamda ularga boʻlgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka boʻlgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar”<sup>6</sup> sifatida taʼriflanadi

Investitsiya soʻzi kengroq maʼnoni anglatib, bunga qoʻshimcha ravishda oʻzlashtirmoq degan maʼnoni ham berar ekan”<sup>7</sup>

Yevropacha uslub "investitsiya" atamasini qimmatli qogʻozlarga kiritilgan uzoq muddatli qoʻyilmalarga nisbatan ham qoʻllanilishiga yoʻl qoʻyadi. Ammo "faqat korporatsiyani boshqarish imkoniyatini oʻzida aks ettirgan holatdagina bunday kapital qoʻyish investitsiya boʻlishi mumkin".<sup>8</sup>

Amerikancha uslub "investitsiya" va "kapital qoʻyilmalar" atamalari oʻrtasida tenglik ishorasini qoʻyadi va uning iqtisodiy mazmunida koʻchmas mulkka qilingan qoʻyilmalarga ustuvorlik beradi.

Investitsiya atamasi toʻgʻrisida soʻz yuritganda MDH mamlakatlari iqtisodiy adabiyotlarida keng qoʻllaniladigan bir qator taʼriflarni koʻrib chiqish maqsadga muvofiq. Masalan, rus iqtisodchi-olimi Kovalev V.V. – fikriga koʻra, "investitsiyalar — xalq xoʻjaligining turli tarmoqlaridagi korxonalariga uzoq muddatli kapital qoʻyishdir (mamlakat ichida yoki xorijda)"<sup>9</sup>. Koʻrinib turibdiki, ushbu taʼrifda investitsiyalarning maqsadi va sohalari oʻz aksini topmagan. Shu

<sup>4</sup>Финансово-кредитный словарь. Т.1. М.: Финансы и статистика, 1984.

<sup>5</sup>Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: «OʻME» davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 4-tom. –145-b

<sup>6</sup>Oʻzbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunining yangi tahriri. 2014. 29-oktyabr

<sup>7</sup>Karimov N.Gʻ., Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" Darslik. - TDIU, 2011-B.

<sup>8</sup>Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. - М.ИНФРА-М, 2007. - с.28.

<sup>9</sup>Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов.-- М.: Финансы и статистика, 2008. – 144с.

bilan birga ushbu ta'rifda investitsiyalar uzoq muddatli kapital qo'yilmalarga tenglashtirilmoqda.

Investitsiyalar — asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi.

Lukinov V.A. yuqoridagi ta'rifga nisbatan bir muncha to'laroq va aniqroq ta'rifni keltiradi: "investitsiyalar — foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida yoki xorijda xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga davlat va xususiy kapitalining uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalaridir"<sup>10</sup>.

Mazkur ta'rifda investitsiyalarning maqsadi ko'rsatilgan bo'lsada, uning ijtimoiy samarani ta'minlashdagi roli ko'rsatilmagan. Shuningdek, investitsiyalar faqat moliyaviy qo'yilmalar sifatida tavsiflangan, xolos. Vaholanki, mashinalar, texnologiyalar, litsenziyalar ham investitsiyalar bo'lishi mumkin.

Mazkur ta'rif garchi keng qamrovli bo'lsa-da, investitsiyalarning mohiyatini to'liq va aniq ochib bera olmaydi. Bunda investitsiyalar turli xil dasturlarni va loyihalarni amalga oshirish uchun sarflanadigan pul, mulk va intellektual boyliklar majmuasidan iboratligi ta'kidlanadi.

Qimmatli qog'ozlarga qilinadigan uzoq muddatli qo'yilmalar, texnologiyalar sotib olish uchun sarflanadigan mablag'lar va boshqa muhim investitsiya turlari e'tibordan chetda qolgan.

Quyidagi ta'rifda investitsiyalar va kapital qo'yilmalar o'rtasiga tenglik ishorasi qo'yilgan: "Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) — xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashga yo'naltirilgan moddiy, mehnat va pul resurslari xarajatlari yig'indisidan iborat"<sup>11</sup>

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi qonunida keltirilgan ta'rif investitsiyalarning iqtisodiy-huquqiy tabiatini to'liq ochib beradi: "investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat

---

<sup>10</sup> Лукинов В.А. Проблемы стабилизации и развития инвестиционно-строительной сферы.-- М.: 1998. 228с.

<sup>11</sup> Шапиро В.Д. и др. Управление проектами. — СПб.: "Два Три", 2006. - 17 с..

ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va (nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar; investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui"<sup>12</sup>.

Bizga ma'lumki, investitsiyalarga xos bo'lgan eng muhim belgi, eng avvalo, foyda olishga qaratilganligidir. Investitsiyalar tabiatan va mohiyatan foyda keltirish uchun salohiyatli hisoblanadi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyalar quyidagicha xarakterlanadi:

- birlamchi kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik obyektlariga joylashtirish;
- investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Makroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarishda yangi vositalarga, turar-joylarga va moddiy zaxiralarining o'sishiga qilinadigan xarajatlardan tashkil topadigan yalpi xarajatlarning bir qismi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish nazariyasi va umuman, makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini hamda inson kapitalini qo'shib hisoblanganda) yaratish jarayonidir.

Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olish tushuniladi, ya'ni bugungi sarf-xarajatlarning maqsadi kelajakda daromad olishdir.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida investitsiyalar tayinlangan obyekti bo'yicha tabaqalashtirilgan. Shunga muvofiq investitsiyalar quyidagi turlarga ajratilgan(1.3-chizma).


Kapital investitsiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa shakllarini ishlab chiqarishga qo'shiladigan investitsiyalar kirad.

Innovatsiya investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning Yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

---

<sup>12</sup>"O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi. 1998 y. 24 dekabr, 2-modda

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.



### 1.3-chizma. Investitsiyalarning tasniflanishi

Rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalarning uch turi mavjudligi ko'rsatib o'tilgan:

- ❖ moliyaviy investitsiyalar - ichki moliyaviy va xorijiy mamlakatlarning banklarga qo'yilgan omonatlar, depozit sertifikatlari, aksiyalar, veksellar, zayomlar va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar hamda ularga tenglashtiriladigan boyliklar;
- ❖ moddiy investitsiyalar - asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining asosiy hamda aylanma kapital ko'rinishidagi turlari;
- ❖ aqliy (intellektual) investitsiyalar - insonning turli aqliy mulklaridan, ya'ni mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish huquqi shaklidagi investitsiyalar (nou-xau, kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari).

Mamlakatimizda qabul qilingan investitsiyalar to'g'risida me'yoriy



hujjatlarni tahlil qilish va investitsiyalarning alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda investitsiyalarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

Investitsiyalar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Mablag'larni kiritish ob'ektiga ko'ra investitsiyalarni ikki turga ajratish mumkin: moliyaviy investitsiyalar va real investitsiyalar

Moliyaviy investitsiyalar - mablag'larni moliyaviy aktivlarga kiritishdir. Moliyaviy investitsiyalar aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar shaklida qatnashishi mumkin.

Moliyaviy investitsiyalar kapitalni, to'lov va moliyaviy majburiyatlarning barcha turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, moliyaviy aktivlarga joylashtirilishini anglatadi. Ushbu moliyaviy vositalarning eng muhimlari qimmatli qog'ozlardir: ulushli (aksiyalar) va qarz (obligatsiyalar). Real investitsiyalardan farqli o'laroq, moliyaviy investitsiyalarni ko'proq portfel investitsiyalar deb atashadi, chunki bu holda investorning asosiy maqsadi moliyaviy aktivlarning mukammal yig'masini (investitsiyalar portfelini) shakllantirish va qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni boshqarish hisoblanadi;

<b>INVESTITSİYALAR</b>			
<b>MODDIY BOYLIKLAR</b>	<b>MOLIYAVIY BOYLIKLAR</b>	<b>INTELLEKTUAL BOYLIKLAR</b>	<b>BOSHQA BOYLIKLAR</b>
Binolar; -Inshoatlar; -Asbob uskunalar; -Transport vositalari; - boshqalar.	Pul mablag'lari; - Bankdagi maqsadli jamg'armalar; - Sug'urta polis-lari; - qimmatli qog'ozlar	Avtorlik huquqi; -Ixtirolardan foydalanish huquqi (nou-xau); -Boshqa intellektual boyliklar;	Tabiiy resurs-lardan foydalanish, er va mulklardan foydalanish xuquqlari; - Ijara huquqlari; - Boshqalar.

## **1.4-chizma. Investitsiyalarning tasniflanishi<sup>13</sup>**

Real investitsiyalar deganda barcha turdagi (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) nomoliyaviy aktivlarni sotib olish maqsadida kiritilgan mablag'lar tushuniladi. Real investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Moddiy investitsiyalar asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyihalar doirasida amalga oshiriladi.

Nomoddiy investitsiyalar nomoddiy boyliklar yaratilayotganda amalga oshirilib, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, yangi mahsulotlarning namunalarini yaratishga sarflarni mujassamlashtiradi

Investitsiyalarning real va moliyaviy turlarga ajratilishi ularni tasniflashtirishdagi asosiy belgilardan hisoblanadi. Investitsiyalash jarayoniga ishtirok etish xarakteriga ko'ra investitsiyalar bevosita va bilvosita investitsiyalarga bo'linadi.

Bevosita investitsiyalarda investor investitsiyalash ob'ektini tanlash va mablag'lar kiritishga bevosita ishtirok etadi. Bevosita investitsiyalarni odatda investitsiya ob'ekti to'g'risida aniq ma'lumotga ega, investitsiyalash mexanizmi bilan yaqindan tanish, shuningdek bu sohada katta tajribaga ega bo'lgan maxsus tayyorgarlikka ega investorlar amalga oshiradilar.

Bilvosita investitsiyalar investitsion yoki boshqa moliyaviy vositachilar (tijorat banklari, investitsion kompaniyalar, fondlar va boshqalar yordamida) orqali amalga oshiriladi. Investitsiyalash muddatiga ko'ra investitsiyalar qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi.

Qisqa muddatli investitsiyalar bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga kapital kiritishdir. Masalan, qisqa muddatli depozit qo'yilmalari, qisqa muddatli jamg'arma sertifikatlarini sotib olish va h.k.

Uzoq muddatli investitsiyalar ishlab chiqarish uchun mo'ljallanmagan uzoq muddatli foydalanish ko'zda tutilgan aktivlarni barpo etish, ularni kengaytirish va sotib olishga sarflangan kapital mablag'lardir.

Mulk shakliga ko'ra investitsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi: xususiy, davlat, xorijiy va qo'shma investitsiyalar.

Xususiy investitsiyalar fuqarolar hamda mulkchilikning nodavlat xo'jalik yuritish sub'ektlari tomonidan mablag'lar kiritishdir.

Davlat investitsiyalari - markaziy, mintaqaviy hamda mahalliy hukumat va boshqaruv organlari tomonidan byudjet, byudjetdan tashqari fondlar hamda qarz

---

<sup>13</sup>«Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalaashtirish» fanidan ma'ruza matni.2009 yil 36-bet

mablag'lari hisobiga, shuningdek, davlat korxonalari tomonidan ularning o'z va qarz mablag'lari hisobiga amalga oshiradigan qo'yilmalaridir.

Bevosita xorijiy investitsiyalar xalqaro investitsiya faoliyatining muhim toifasi bo'lib, bir mamlakat xo'jalik yuritish birligining boshqa mamlakatdagi korxonaga barqaror ta'sir o'tkazishga intilishini o'zida aks ettiradi. Barqaror ta'sir o'tkazish deganda bevosita investor va ko'rsatilgan korxonaga o'rtasida uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish, shuningdek, ushbu korxonani boshqarishda investorning sezilarli roli tushuniladi.

Bevosita xorijiy investitsiyalar Nizom kapitaliga badal, kreditlar va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bevosita investitsiyalash korxonasi korporativ va nokorporativ birlik sifatida aniqlanadi. Unda investorga kamida 10 foiz oddiy aktsiya yoki aktsionerlar ovozi (korporativ korxonalar uchun) yoki shunday ishtirokning ekvivalenti (nokorporativ korxonalar uchun) tegishli bo'ladi.

Hududiy joylashtirilish bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalargabo'linadi

Mamlakat ichkarisidagi (ichki) investitsiyalar deganda mamlakat hududida joylashgan ob'ektlarga investitsiya mablag'larining kiritilishi tushunilsa, xorijdagi investitsiyalar (tashqi) mamlakat hududidan tashqarisida joylashgan ob'ektlarga investitsiyalarni joylashtirish tushuniladi<sup>14</sup>

Investitsiyalar tavakkalchilik darajasi bo'yicha yuqori tavakkalli va past tavakkalli investitsiyalarga ajratiladi. Moliya sohasida tavakkalchilik deganda investitsiyalarga mutloq yohud nisbiy miqdordagi foyda kutilganidan ancha kam, boshqacha aytganda, "tavakkalchilik" atamasi kutilmagan natija olish imkoniyatini anglatadi.

Yuqorida keltirilgan tasniflashtirish investitsiyalarning eng muhim belgilarini o'zida aks ettirib, zaruriyat tug'ilganda yanada aniqlashtirilishi va ilmiy, tadqiqot, tadbirkorlik maqsadlaridan kelib chiqqan holda yanada kengaytirilishi mumkin.

Hozirgi kunga kelib investitsiyalarning bu turlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga jalb qilinmoqda. Bundan tashqari investitsiyalash jarayoni ijtimoiy-madaniy sohalarida ham amalga oshirilmoqda, ya'ni fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va ekologiya sohalariga investitsiya mablag'lari ajratilmoqda. Mamlakatimizda qurilayotgan ta'lim, sport, madaniyat va sog'liqni saqlash maskanlari, ularni zamonaviy texnika jihozlari bilan ta'minlash ishlari bunga misol bo'ladi.

Investitsiyalar darajasi yalpi ichki mahsulot hajmiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, milliy iqtisodiyotdagi ko'plab mutanosibliklar uning o'sish sur'atlariga

---

<sup>14</sup>Imomov N.N. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.(O'quv qo'llanma) —T-TDIU, 2011.,44-6.

bog'liq. Investitsiyalar mamlakat miqyosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashni yaxshilaydi

Investitsiya jarayoni va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishda investitsiya multiplikatori muhim ahamiyatga ega. Uni umumiy daromadlarning o'sishi va qo'shimcha kapital qo'yilmalar o'rtasidagi nisbat sifatida ifodalash mumkin.

Investitsiya multiplikatori investitsiyalarning daromadlarning o'sishiga ta'sirini ifodalaydi. Ushbu uslub dastlab R.F. Kan tomonidan mablag'lardan foydalanish multiplikatori<sup>15</sup> sifatida taklif qilingan bo'lib, bu g'oya ushbu olim tomonidan amalga oshirilgan kuzatishga asoslangan. Ushbu kuzatish natijalariga ko'ra, mablag'lardan birlamchi qo'shimcha foydalanishning muayyan hajmi taqsimlangan daromadlar va ular bilan bog'liq xarajatlarning asta-sekinlik bilan o'sishi natijasida ulardan foydalanishning ikkilamchi shakllarini keltirib chiqaradi. Mazkur g'oya keyinchalik Keyns tomonidan bir tizimga keltirilib.

Jadallashuv tamoyili multiplikator tushunchasi bilan birgalikda iqtisodiy tsikllarni atroflicha tahlil qilishga, kapital qo'yilmalarning iqtisodiyotning notekis harakatidagi rolini ochib berishga yordam beradi. Bunda multiplikator investitsiya jarayonlarining faoliyat sxemasini yoritib bersa, jadallashuv tamoyili uning asosiy shart-sharoitlarini aniqlab beradi.

Ushbu nazariy qarashlarning O'zbekistonning investitsiya sohasidagi hozirgi holatini tavsiflashdagi dolzarb jihatlarini alohida ta'kidlash lozim. haqiqatdan ham, iqtisodiy islohotlarning dastlabki davrida O'zbekistondagi investitsiya taqchilligining muhim sabablaridan biri bir tomondan, davlat investitsiyalari hajmining qisqarishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, xususiy investitsiyalar oqimi uchun zaruriy shart-sharoitlarni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatgan pirovard mahsulotga bo'lgan ichki talabning keskin qisqarishi bilan bog'liq.

Shunday qilib, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tizimida investitsiya jarayonlari asosiy o'rinni egallaydi. Bu esa, o'z

---

<sup>15</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: Избранное., М.: Эксмо, 2007 г. с.173.

navbatida, davlatning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirishni tartibga solish sohasidagi asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilab beradi.

### **1.3 Investitsiyalarni joriy qilishning xorij tajribasi hamda uni mamlakatimizda tadbiiq etish imkoniyatlari.**

Har yili dunyo xo'jaligiga 2.0-2.5 trln.AQSh dollari miqdorida investitsiya sarf ettiriladi.Asosiy investorlar bo'lib yettita o'ta rivojlangan davlatlar yoki Rambus klubiga a'zo bo'lgan davlatlar hisoblanadi. Bular AQSh, Fransiya, Germaniya, Angliya, Italiya, Yaponiya va Kanadadir.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida investitsiya siyosati har bir hududning ichki imkoniyatlari va shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda turlicha qo'llanilishi mumkin.

AQSh respublikasining iqtisodiy rivojlanish modeli va xorijiy investitsiyalarni jalb etish tajribasi O'zbekiston uchun aloxida ahamiyat kasb etadi. Bu AQShning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi xususiyatlar undagi demokratik vaziyatning o'ziga xosligi qishloq xo'jaligining iqtisodiyotidagi yuqori ahamiyati qayta ishlash sanoatining kam taraqqiy etganligi uning agrar-industrial mamlakat ekanligi o'ziga xos ijtimoiy shart-sharoitlar bilan tafsiflanadi.

AQShning investitsion iqlimi yetarli darajada yorqin va jozibalidir. Hozirgi kunda bu mamlakat chet el investitsiyalarini jalb qilish hajmi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallab turibdi.Ya'ni dunyo miqyosida taxminan 20 %ni tashkil etadi. Bunday ajoyib natijalarga erishishda AQSh hukumati iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil sifatida chet el investitsiyalarini mamlakatning alohida shtatlarlarga kerakli vakolatlarni ajratib bergan.Ya'ni unga ko'ra mamlakatdagi hududiy boshqaruv organlariga investitsiyalar oqimini oshirishda rag'batlantirish uchun umumiy mamlakatning bosh boshqaruv organiga nisbatan kam bo'lmagan vakolatlar beriladi.

Bu mamlakatning xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erishgan yutuqlari esa ko'p jixatdan uning mintaqalarida qulay nvestitsiya muxitining yaratilganligiga bog'liq.AQShda erdan foydalanish ishlab chiqarishga kiritilgan kapital uchun keng

ko'lamli imtiyozlar ijtimoiy-maishiy infratuzilmaning rivojlanganligi va boshqa xolatlar bu mamlakatning so'ngi yillar ichida xorijiy investorlar uchun kapital kiritish ob'ektiga aylanishiga olib keld.

AQSh iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishda quyidagi qator muhim o'ziga xos xususiyatlarni ajratib o'tishimiz mumkin:

- hududiy va mamlakatning olib borgan siyosati natijasida iqtisodiyotga investitsiyalarning yuqori oqimi ta'minlanmoqda.

- kapital eksporti va importini rag'batlantirishning teng darajadali, buning natijasida mamlakat "netto-importer" maqomiga egabo'lgan;


- chet el investitsiyalarining yuqori darajada nazorat qilishni suiste'mol qilish(korrupsiya, qonunchilik meyorlari va moliyaviy-kredit kelishuvlarining buzilishi)ga yo'lqo'yilmasligi:

  - boshqa qatnashchilar uchun bozorning ochiqdigi;

  - investitsion qonunchilik va soliq tizimining rivojlanganligi;

AQShda investitsiyalarni boshqarishda iqtisodiy erkinlik tamoyillariga asoslanadi va iqtisodiy jarayonga jiddiy aralashmaydi. Bunday maqsad esa AQShdagi tashqi iqtisodiy faoliyat institutlarining asosiy ishi bo'lib, mamlakat va uning hududlaridagi maksimal eksport potensialini kengaytirish, xalqaro iqtisodiy faoliyatda iloji boricha ko'proq qatnashchilarni jalb qilish uchun xukumat tomonidan ishlar olib borilmoqda.

AQSh iqtisodiyoti 2030 yilda eng yirik bo'lib saqlanib qoladi, lekin uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2015 yildagi 23%dan 20%ga tushadi. Ushbu makroiqtisodiy ma'lumotlar yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha 2030 yilgacha dunyo iqtisodiyotidagi 20 eng yirigini, AQSh qishloq xo'jaligi vazirligitonidan hisoblab chiqilib tashkil etilgan.



Ko'rsatkichlariga asosan AQSh liderlikni saqlab qoladi va mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 2030 yilga kelib 24,8 trln. dollarni tashkil qiladi. Ikkinchi o'rinni Xitoy egallaydi, uning yalpi ichki mahsuloti hajmi 22,2 trln. dollardan iborat bo'ladi. Kuchli uchlikka esa Hindiston 6,6 trln. dollar yalpi ichki mahsulot bilan kiradi. Xalqaro Valyuta Fondining shuni qayd etadiki so'nggi 15 yilda Hindiston jahonda ishlab chiqarish kuchi bo'yicha eng baquvvat mamlakatga aylanadi. Investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishda yana bir dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri bu Xitoy hisoblanadi. Ularning investitsiyalarni boshqarishda olib borayotgan siyosati taxsinga sazovordir.

Xitoy hozirgi kunda investitsiyalarni jalb qilishda jahonda birinchi o'ringa ko'tarilib, bir necha asrdan beri o'z o'rnini hech kimga bermay kelayotgan AQShni keyingi o'ringa tushirib qo'ydi. 1978 yildan boshlab Xitoyda iqtisodiy islohotlar o'tkazila boshlanganshertli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich, o'z ichiga 1979-1982 yillarni qamrab oladi. Bu bosqichda Xitoyda "ochiq eshiklar" siyosati shakillandi. 1980 yillarning boshida mahalliy hukumatlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qarorlarni qabul qilish huquqi berildi. Bu davrda xorijiy investorlarga katta imtiyozlar berildi.

Ikkinchi bosqich, 1983-1991 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda xorijiy investitsiyalarni jalb etish siyosati takomillashtirildi. Mamlakatda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlarga asosan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar katta imtiyozlar berildi. Ular uchun daromad solig'ining stavkasi 33 foizgacha kamaytirildi. Baxolanki bu davrda mahalliy korxonalar uchun daromad solig'i 55 foizni tashkil qilir edi. Agar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar o'z faoliyatini maxsus iqtisodiy zomnalarda amalga oshirayotgan bo'lsalar, ular uchun bu stavka yana xam kamroq miqdorda, ya'ni 15 foiz darajasida belgilangan edi.

Uchinchi bosqich, 1992 yilda hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ular uchun yopiq bo'lgan moliya, sug'urta va boshqa sohalarga xam jalb etilishi aynan 1992 yildan kegin boshlandi. Bundan samarali islohotlar natijasida Xitoy XXI asr boshida xorijiy investitsiyalar uchun eng jozibli mamlakatlardan biriga aylandi. Hozirda mamlakatda chet el mablag'lari hisobiga yaratilgan 1000 dan ortiq ilmiy-tadqiqot tashkilotlari ish yuritmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ilmiy yondashuvni va kapitalni ko'p talab qiluvchi sohalar tezkorlik bilan chet el kapitalini kiritish uchun muhim yo'nalishga aylanmoqda

Turli mamlakatlar (Xitoy, Xindiston, Chili) investitsiya siyosatidagi farqlar va o'ziga xos xususiyatlarga qaramay bu davlatlarning investitsiya strategiyasi va mexanizmlarida umumiy tomonlar majud. Bular quyidagilardir

1. Samarali investitsiya siyosatini tashkil qilishda (ayniqsa uning shakillanishi bosqichlarida) davlatning yuqori roli. Bunda davlatning funktsiyalari faqat qulay investitsiya muhitini shakillantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, zarur me'yoriy-huquqiy bazani yaratish va unga rioya qilish monitoringini amalga oshirish bilan cheklanmaydi. Bu yo'nalishda inson va ijtimoiy kapitalni rivojlantirish, davlat institutlari instituttsional salohiyatini mustahkamlash, iqtisodiyotni yangi innovatsion sektorlarini rivojlantirishga investitsiyalarni ko'paytirish singari masalalarni hal qilish muhim bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, erkinlashtirish jarayonlarining chuqurlashib borishi bilan investitsiyalash jarayonlarini davlat tomondan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish miqyoslari qisqarib boradi, bilvosita vositalar orqali investitsiya oqimlarini rag'batlantirish funktsiyalari esa muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi.

2. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini rag'batlantiruvchi qulay va mustahkam investitsiya muhiti. Bu holat jamg'armalar darajasini YaIMga nisbatan 20 foizdan kam bo'lmasligini, va shuningdek investitsiyalar o'sish sur'atlarini YaIM o'sish sur'atlaridan yuqori (2-4 punk) bo'lishini ta'minlaydi. Oxirgisi ustun darajada xususiy investitsiyalar hisobiga



amalgga oshiriladi. Bunga xususiy sektorga katta hajmdagi kreditlarning ajratilishi (Tailand, Xindiston) ijtimoiy iqtisodiy muammolarini hal qilishda erkin bozor kuchlari bilan davlatning faol rolining uyg'unlashuvi (inflyatsiyaning past darajasini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikka qarshi kurashish va h.k.

3. Bank sektori va moliya bozorining barqaror rivojlanishi. Jahonning ko'pgina raqobatbardosh rivojlanayotgan mamlakatlarida monetizatsiya darajasi 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Faqat shunday holdagina aholi va tadbirkorlarning bo'sh mablag'larini ishga solish, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, faol inflyatsiyaga qarshi siyosatni olib borish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

4. Investitsiya siyosatining tizimliliigi va bir butunligi. Ma'lumki, investitsiya siyosati mamlakat inqtisodiy rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qisimlaridan biri bo'lib hisoblanadi. (masalan, Xindistonning yangi sanoat siyosati, Tailandning sanoat siyosati, Chilining eksport salohiyatini rivojlantirish siyosati) va umummilliy manfaatlariga asoslanadi. Jumladan, Xitoy investitsiya siyosati tsikllarga qarshi tartibga solish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, erishilgan yuqori o'sish sur'atlarini saqlab turishning (Xitoy iqtisodiyotining tsiklik rivojlanishi xususiyatini hisobga olgan holda) faol vositasi bo'lib hisoblanadi.

5. Investitsiya siyosatga mas'ul bo'lgan davlat institutlari faoliyati sifatini oshirish. Bu nodavlat mustaqil eksportlarni (taniqli olimlar va obroli biznesmenlar) davlat resurslarini taqsimlovchi boshqaruv kengashlari va tuzilmalar tarkibiga jalb qilish orqali amalga oshirilgan. Mazkur resurslar u yoki bu investitsiya loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sifatida xususiy investitsion-innovatsion fondlarning boshlang'ich kapitalini shakillantirish uchun taqdim etilgan. Ana shu maqsadda davlat hukumat bilan shartnomabo'yicha ishlovchi xususiy kam foyda oluvchi korporatsiyalar xizmatidan foydalangan. Bu davlatlarda investitsiya imtiyozlari va preferentsiyalarini berish ishlarining shaffofligi muhim rol o'ynaydi.

6. Yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga kapital oqimlarini yo'naltirish. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar bunda rivojlangan mamlakatlar bilan ular

shrtasidagi iqtisodiy rivojlanish sur'atlaridagi frqni tezroq bartaraf etish imkonini beruvchi rivojlanishning “quvib etish” strategiyalaridan foydalanganlar. Bunda asosiy mexanizm bo'lib xususiy-davlat hamkorligi, davlat va biznes o'rtasidagi riskni taqsimlash, marketing tadqiqotlariga ketadigan xarajatlarni davlat tomonidan birlashtirib moliyalashtirish, personalni o'qitish, yangi mahsulotni sertifikatlashga ko'maklashish hisoblanadi.

7. Inson va ijtimoiy kapitalni oshirishni investitsiyalashga o'ziga xos ustuvorlik berish. Fan sig'imkorligiga (naukaemkoy) ega bo'lgan iqtisodiyotni tezkorlik bilan barpo etish sharoitida raqobatbardoshlikning o'sishini ta'minlash zaruriyati rivojlanayotgan mamlakatlarning inson va ijtimoiy kapitalga keng miqyosdagi investitsiyalarni jalb qilish ko'rinishidagi o'ziga xos ustuvorligini keltirib chiqaradi. Ta'lim sohasiga e'tibor, rivojlangan mamlakatlarga “aqlarning oqib o'tishi”ni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan jiddiy choralar rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish istiqbollarini baholashning eng muhim mezoniga aylandi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda nafaqat investitsion rag'batlar, balki investitsion promounting strategiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan 50 ta mamlakatlar tajribalarga asoslangan tadqiqotlarning dalolat berishicha investitsion promountingga sarflangan har bir dollar milliy iqtisodiyotga to'rt dollarlik samara berishi mumkin. Eng samarali bo'lib u yoki bu sektorga aniq yo'naltirilgan, muayyan potentsial investorga mo'ljallab ishlab chiqilgan va faol marketing strategiyasiga ega bo'lgan investitsiyalar hisoblanadi.

O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt anglab yetganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, chet el investitsiyalarini kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini

ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas.

Bu avvalombor, aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish, bu oxir – oqibatda respublikamiz hududlari, shahar va tumanlarimizdagi eng muhim ijtimoiy muammolarni yechish demakdir.

## **II.BOB. O'ZBEKISTONDA MEHMONXONALARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION MUHITINI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI**

### **2.1. O'zbekistonda mehmonxona sohasini rivojlanishning huquqiy asoslari.**

Mamlakatimiz turizm industiriyasi jadal rivojlanishi uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhit yaratish, jumladan, sohada xususiy sektorning ustuvor ishtirokini ta'minlash, uning raqobatbardoshligi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish yangi ish o'rinlari tashkil etish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish maqsadida ko'plab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari qabul qilinib ijrosi taminlanmoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «**Mehmonxona sohasiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida**»gi 2018-yil 14-avgust, 661-son qarori ilovasida zamonaviy mehmonxona xizmatlari ko'rsatish uchun sharoitlar yaratish va mehmonxona komplekslaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida:

1. Ilovaga muvofiq ro'yxat bo'yicha mehmonxona komplekslaridagi davlat aktivlarini (keyingi o'rinlarda ob'ektlar deb ataladi) investorlar tomonidan ularni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish majburiyatini olgan holda ommaviy savdolarida sotisht o'g'risida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Qashqadaryo viloyati va Toshkent shahar hokimliklarining taklifiga rozilik berilsin deyilgan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi balans daturiga tashkilotlar bilan birgalikda ikki oy muddatda, belgilangan tartibda, ob‘ektlarni baholash va ommaviy savdolarga qo‘yishni ta‘minlasin deb aytilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi:

potensial, shujumladan, xorijiy investorlarni keng xabardor qilish va ob‘ektlarni sotib olishga jalb etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rsin;

ob‘ektlarni sotish yakunlariga ko‘ra har bir ob‘ektni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish bo‘yicha «yo‘l haritalari» ishlab chiqishda ko‘maklashsinlar.

4. Davlat mulklarini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolari o‘tkazish bo‘yicha davlat komissiyasi (S.R. Xolmuradov) ushbu qarorga [ilovada](#) ko‘rsatilgan mehmonxona komplekslaridagi davlat aktivlarini, qonunchilikda belgilangan tartibda, investorlarga sotilishini ta‘minlasin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **«2018 yil 19-21-noyabrda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan Turizm sohasidagi birinchi xalqaro investitsiya forumini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»**gi 2018-yil 15-noyabr, 931-son qarorida Qulay investitsiya muhitini yaratish va turizm sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, ushbu yo‘nalishda izchil amalga oshirilayotgan davlat siyosatiga investorlarning ishonchini mustahkamlash, shuningdek, investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas‘uliyatini oshirish maqsadid aqaror qiladi:

1. 2018 yil 19 — 21 noyabrda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan Turizm sohasidagi birinchi xalqaro investitsiya forumini (keyingi o‘rinlarda Forum deb ataladi) o‘tkazishga tayyorgarlik bo‘yicha vakolatli vazirliklar va idoralar tomonidan amaliy ishlar olib borilayotgani ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasining Forumni o‘tkazish doirasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun, istisnotariqasida, yer uchastkalari ajratilishining alohida tartibini belgilash to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin va bunda quyidagilar nazarda tutilsin:

Turizm infratuzilmasi ob‘ektlarini qurish uchun investorga aniq investitsiya majburiyatlari ostida yer uchastkalarini elektron auksion o‘tkazmasdan ajratish;

Barcha zarur shartlar, shu jumladan, ajratilayotgan yer uchastkasi va investor tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan investitsiya majburiyatlari bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organi rahbari va investor o'rtasida kelishuvga erishilgan taqdirda loyihani amalga oshirish to'g'risida investitsiya bitimining imzolanishi;

Investor tomonidan O'zbekiston Respublikasining tijorat banklariga 15 ish kuni mobaynida investitsiya bitimi summasining 25 foizi miqdoridagi mablag'ni deponentga o'tkazish yoki 5 foizi miqdoridagi majburiyatni bajarish kafolatini (performance bond) berish sharti bilan investitsiya bitimi tuzilsin;

Investor tomonidan pul mablag'lari depozitga o'tkazilgan yoki moliyaviy majburiyatlarni bajarish bo'yicha kafolat berilgan kundan e'tiboran besh kun muddatda investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan yer uchastkasini ajratish to'g'risida qarorni qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklar iikki kun muddatda xorijiy investorlarga tayyor holatda taklif etiladigan har bir yer uchastkasi bo'yicha investitsiya loyihalarining taqdimot materiallarini ingliz va rus tillarida tayyorlasin.

4. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirlig i bilan birgalikda uch kun muddatda taqdimot materiallarini oldindan ko'rib chiqish va qaror qabul qilish uchun potensial investorlar — Forum ishtirokchilariga yuborishni ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda uch kun muddatda Forumni o'tkazish doirasid ainvestitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalari berishning alohida tartibini o'rnatish to'g'risida potensial investorlar — Forum ishtirokchilarini xabardor qilish bo'yicha qo'shimcha manzilli ish olib borsilar.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda:

Investitsiya bitimlari tuzilganidan keyin uch oy muddatda investorlar bilan birgalikda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning tarmoq jadvallarini ishlab chiqsinlar, tasdiqlasinlar va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsinlar;

Investitsiya loyihalari belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi monitoringi olib borilishini va investorlarga amaliy yordam berilishini ta’minlasinlar.

Respublika hududlarining turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, hududlarda zamonaviy turizm infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta’minlash, mehmonxona xizmatlarini kengaytirish va sifatini yaxshilash, mehmonxona sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, shuningdek, joylashtirish ob’ektlarining mavjud kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining **«O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishiga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»**gi 2018 yil 24-noyabrdagi, 954-son qarorida quyidagilar belgilangan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining loyihalashning ijobiy xorijiy tajribasini, shujumladan, birinchi navbatda Turkiya va Koreya respublikalari tajribasini hisobga olib namunaviy loyihalar bo‘yicha ishlab chiqilgan sig‘imi 8 — 50 nomerli kichik mehmonxona va xostellar (keyingi o‘rinlarda namunaviy loyihalar bo‘yicha mehmonxonalar deb ataladi) qurilishini amalga oshirish to‘g‘risidagi takliflari berilsin.

2. Kichik mehmonxonalar va xostellarning namunaviy loyihalarini ishlab chiqish doirasida:

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi — buyurtmachi;

«Qishloq qurilish loyiha» MCHJ — bosh loyihalash tashkiloti etib belgilangan ekan.

Belgilansinki, kichik mehmonxona va xostellarning namunaviy loyihalari investorlarga — tadbirkorlarga bepul asosda beriladi.

3. Hamunaviy loyihalar bo‘yicha mehmonxonalarini qurish bo‘yicha investorlarga — tadbirkorlarga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha Respublika ishchi guruhining tarkibi (keyingi o‘rinlarda Respublika ishchi guruhi deb ataladi) va hududiy ishchi guruhlarning namunaviy tarkibi (keyingi o‘rinlarda hududiy ishchi guruh deb ataladi).

#### 4. Quyidagilar:

##### a) Respublika ishchi guruhining asosiy vazifalari etib belgilansin:

namunaviy loyihalar bo'yicha mehmonxonalar qurilishiga xorijiy va mahalliy investorlar — tadbirkorlar jalb qilinishini ta'minlash;

er uchastkalarini berish, namunaviy loyihalar bo'yicha mehmonxona qurilishi bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy-texnik masalalarni hal etishda amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, byurokratizmga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tezkor choralar ko'rsinlar;

namunaviy loyihalar bo'yicha mehmonxonalar qurilishi uchun elektron auksionga qo'yilgan yer uchastkalari to'g'risidagi ma'lumotlar investorlarga-tadbirkorlarga yetkazilishini tashkil etish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan mehmonxonalar qurilishi uchun ajratilgan kamida 5 ta yer uchastkasini har oyda «E-IJRO AUKSION» elektron savdo maydonchasiga qo'yilishini ta'minlasin;

namunaviy loyihalar bo'yicha mehmonxonalar qurilishiga xorijiy va mahalliy investorlar-tadbirkorlarni jalb qilishni ta'minlash;

potensial investorlar bilan muzokaralar va uchrashuvlar o'tkazish choralari ko'rsin;

namunaviy loyihalar bo'yicha mehmonxonalar qurilishi uchun ajratilgan yer uchastkalarini elektron auksionga qo'yish bilan bog'liq masalalar jadal hal qilinishini ta'minlasin;

namunaviy loyihalar bo'yicha mehmonxonalar qurilishi uchun ajratiladigan yer uchastkalarining infratuzilmasini tizimli asosda o'rgansinlar.

5. Er uchastkalarini investorlarga-tadbirkorlarga ajratish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 iyundagi 493-son qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini elektron auksion orqali doimiy foydalanishga berish tartibi to'g'risidagi [nizom](#) talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Elektron auksion o‘tkazishning umumiy muddati «E-IJRO AUKSION» elektron savdo maydonchasida amalga oshiriladigan barcha tartibotlar bilan birga istisno tariqasida 10 kundan oshmasligi kerak.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari:

a) O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bo‘yicha davlat qo‘mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda nazarda tutilgan hududlarda namunaviy loyihalar bo‘yicha mehmonxonalar qurish uchun yer uchastkalari ro‘yxatini, ular to‘g‘risida tegishli ma‘lumotlar bergan holda tasdiqlasinlar;

b) qurilishni amalga oshirish davrida namunaviy loyihalar bo‘yicha mehmonxonalar qurish uchun ajratilgan yer uchastkalari, shuningdek, investorlar — tadbirkorlarning hisobi yuritilishini ta‘minlasinlar;

v) har oyda Respublika ishchi guruhiga:

elektron auksionga qo‘yilgan, tasdiqlangan yer uchastkalari;

namunaviy loyihalar bo‘yicha mehmonxonalar qurish tashabbusi bilan chiqqan investorlar — tadbirkorlar;

ko‘rsatib o‘tilgan hududlarda mehmonxonalarga bo‘lgan ehtiyoj va ularning soni, ularning nomer fondi to‘g‘risida ma‘lumot bersinlar.

7. Namunaviy loyihalar bo‘yicha mehmonxonalar hududiga muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini tortib kelish bilan bog‘liq harajatlar tegishli tumanlarning (shaharlarning) mahalliy byudjetlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi;

namunaviy loyihalar bo‘yicha mehmonxonalarni tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash bilan bog‘liq harajatlar investorlap — tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi ekan.

8. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi:

ikki oy muddatda mehmonxonalarning bandligini ta‘minlash hamda bron qilishning samarali tizimini joriy qilgan, ko‘rsatilayotgan xizmatlarni targ‘ib qilgan va mehmonxona xodimlarini o‘qitgan holda ular faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha marketing ishlari rejasini ishlab chiqsin;



turizm sohasidagi tadbirkorlik sub'ektlari bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari vakillari uchun axborot va media turlar tashkil etsin.

9. Respublika ishchi guruhini va ushbu qaror doirasida namunaviy loyihalar bo'yicha mehmonxonalarni qurish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchi investorlar-tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun vazirliklar va idoralar rahbarlariga shaxsiy mas'uliyati yuklatilsin.

Turizm tarmog'ini rivojlantirish, shu jumladan bugungi kun standartlari va talablariga javob beradigan zamonaviy mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalarini (keyingi o'rinlarda — mehmonxonalar) qurish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, respublikada mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «**O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**» 2019 yil 5 yanvardagi PQ-4095-sonida mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagicha belgilangan:

1. Shunday mexanizmlar joriy etilsinki, ularga muvofiq:

a) mehmonxona qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi qurilish tugallangandan so'ng investorga mulk huquqi asosida sotilishi mumkin, moddiy madaniy meros ob'ektlarining hududi va muhofaza zonasi hamda qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yer uchastkalari bundan mustasno;

b) 3 yulduzli toifa uchun 50 ta xonadan kam bo'lmagan va 4 yulduzli toifa uchun 100 ta xonadan kam bo'lmagan xonalar fondiga ega mehmonxona 2022 yil 1 yanvargacha foydalanishga topshirilgan taqdirda, mehmonxona toifasi tasdiqlangach yangi mehmonxonani qurish va jihozlash uchun investorlar harajatlarining bir qismi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti (keyingi o'rinlarda — Davlat byudjeti) mablag'lari hisobidan qoplanadi. Bunda, investorlar harajatlarining bir qismini Davlat byudjetidan moliyalashtirish miqdori qo'shimcha ravishda tashkil etilayotgan xonalar soni 50 mingga yetguniga qadar kelgusi yil uchun Davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlash jarayonida ushbu miqdorni har yili indeksatsiya qilgan holda:

3 yulduzli toifaga ega mehmonxonalaridagi har bir xona uchun 40 million so'm;

4 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 65 million so‘mni tashkil qiladi ekan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda Yangi mehmonxonani qurish va jihozlash uchun investorlar harajatlarini qoplash uchun Davlat byudjetidan mablag‘ ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin ekan.

3. Belgilansinki, dunyoning taniqli va nufuzli mehmonxona brendlaridan (mehmonxona brendlarining top-50 reytingiga ko‘ra) foydalanish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan tashkilotlar uchun royalti franchayzing to‘g‘risidagi shartnoma kuchga kirgan vaqtdan boshlab uch yil mobaynida Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan quyidagi hajmda qisman moliyalashtiriladi:

dastlabki 50 ta 3 yulduzli toifaga ega mehmonxona — har bir mehmonxonaning bitta xonasi uchun yillik 200 AQSH dollari ekvivalentida;

dastlabki 30 ta 4 yulduzli toifaga ega mehmonxona — har bir mehmonxonaning bitta xonasi uchun yillik 400 AQSH dollari ekvivalentida.

Bunda tashkilotlar uchun royaltini moliyalashtirishning umumiy hajmi ko‘pi bilan 10 million AQSH dollari ekvivalentiga teng bo‘ladi.

4. xostellarni mehmon uylari va xostellar reestriga o‘rnatilgan tartibda kiritish talabini belgilagan holda xostellarning mehmonxona xizmatini majburiy sertifikatlash talabi bekor qilinadi;

5. hududida turizm infratuzilmasi ob‘ektlari, shu jumladan joylashtirish vositalari joylashgan yoki barpo etiladigan moddiy madaniy meros ob‘ektlari o‘ttiz yilga, biroq o‘n yildan kam bo‘lmagan muddatga ijaraga beriladi. Bunda ijarachilar besh yillik ijara haqiga teng miqdorni o‘zlari joylashgan moddiy madaniy meros ob‘ektlarini restavratsiya va konservatsiya qilishga yo‘naltirish hamda moddiy madaniy meros ob‘ektlarini saqlash qoidalariga rioya qilish sharti bilan dastlabki besh yil uchun ijara haqi to‘lashdan ozod etiladi;

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi turizm loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 2019 — 2021 yillar davomida har yili 1 fevralga qadar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasiga 5 million AQSH dollari ekvivalentidagi pul mablag‘larini o‘tkazib borsin.

6. Tadbirkorlik sub'ektlariga namunaviy, shu jumladan tarmoqli loyihalar asosida zamonaviy sanitar-gigiyenik shoxobchalarni qurish uchun 80 — 100 kvadrat metr o'lchamda yer uchastkalarini elektron auksionga qo'ymasdan olish uchun O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining iltimosnomasiga ko'ra ustuvorlik huquqi taqdim etiladi.

investorlar tomonidan mehmonxona qurish uchun yer uchastkalari va davlat mulki ob'ektlarini «E-IJRO AUKSION» elektron savdo maydonida auksionga qo'yilishini ta'minlasin;

har chorakda sotilmagan yer uchastkalari va davlat mulki ob'ektlari ro'yxatiga ularni investorlar uchun jozibador boshqa yer uchastkalariga almashtirish orqali o'zgartirishlar kiritib borsin;

har yili xostellar va mehmon uylarini tashkil qilish dasturini tasdiqlash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi bilan birgalikda shaharlar va aholi punktlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda respublikaning har bir yirik shahrida xostellar va mehmon uylari tarmog'ining mavjud bo'lishini nazarda tutsin;

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda uch oy muddatda investorlarni izlashni amalga oshirsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ikki yil davomida investorlar tomonidan zamonaviy talablarga javob beradigan, sanitar-gigiyenik shoxobchalarga ega savdo nuqtalari va turizm infratuzilma ob'ektlarining yagona tarmog'ini qurish, bunda ularni birinchi navbatda ko'p tashrif buyuriladigan turizm namoyishi ob'ektlari va turizm marshrutlari o'tadigan avtomagistrallar yoqasida joylashtirish bo'yicha takliflar kiritilsin ekan. Huloosa qilib aytganda turizm sohasi iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi shu sababli yanada tez su'ratlarda o'sishida huquqiy asoslari muhimdir.

## **2.2. O'zbekiston sharoitida investitsiyalarni jalb qilishning milliy iqtisodiyotga ta'siri**

O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt anglab yetganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, chet el investitsiyalarini kengroq jalb etish

ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas.

Bugungi kunda O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy siyosiy, madaniy jihatdan aloqalari tobora chuqurlashib bormoqda. Aytish mumkinki, mamlakatimiz jahon hamjamiyatining ajralmas bir qismiga aylanmoqda. Xozirgi kunda Rossiya, Yaponiya va bir qator Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi yetakchi davlatlar bilan hamkorlikda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi va shuningdek, olib borilayotgan investitsiya faoliyatining o'sish sur'atlari investitsiya muhitiga bog'liq bo'ladi. Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlab beradi.

Ma'lumki, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud. Xorijlik investorlar qonunchilikka ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarining ustav jamg'armalarida va boshqa mulkdida ulush qo'shib qatnashish. Bunga misol qilib xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar (XIIK)larni (ustav kapitalining kamida 30 foizi xorijlik investorga tegishli bo'lishi kerak) keltirish mumkin, ya'ni qo'shma korxonalar tashkil etish xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning eng ommabop shakli hisoblanadi.

2. Xorijlik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarini barpo etish va rivojlantirish, ya'ni sof xorijiy investitsiyali korxonalar tashkil etish orqali xorijiy

investitsiyalarni jalb qilish. Bunda jami (100 %) ustav kapitali xorijlik investorga tegishli bo'ladi.

3. Mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

4. Intellektual mulkka, shu jumladan, mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga, shuningdek, ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

5. Kontsessiyalar, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan kontsessiyalar olish asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

6. Savdo va xizmat ko'rsatish sohalari ob'ektlariga, turar-joy binolariga ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek, erga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali xorij sarmoyasini jalb qilish.

7. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

8. Xalqaro lizing amaliyotini rivojlantirish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligining o'sish sur'atlari investitsiya muhitiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhimdir, u, qachonki, qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud (ijobiy) bo'lsagina o'sha davlat iqtisodiyotiga qo'yilishi mumkin. Investitsiya muhitining jozibadorligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishning muhim omili hisoblanadi. O'z navbatida, investitsiya muhiti o'zi nima? Uning jozibadorligi nimalarga bog'liq? Investitsiya muhitiga qanday ta'rif

berish mumkin? Qolaversa, investitsiya muhitiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? kabi savollarning tug'ilishi, tabiiydir.

Investitsiya muhitining holatini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshqa shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. U muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi.

Investitsiyaviy jozibadorlik – mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror-bir korxonaga investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsiya riski darajasi nuqtai nazaridan baholanishi. Investitsiyaviy jozibadorlik investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, investitsiya riski darajasini aniqlash mumkin.

Qulay investitsiya muhitini yaratishning muhim jihatlaridan biri huquqiy-me'yoriy baza bo'lib, u har bir salohiyatli investorning mulkiy manfaatlarini himoyalashi, kafolatlashi va shuningdek, mamlakatdagi mavjud investitsiya mexanizmining tushunarli va aniq bo'lishini ta'minlashi lozim. Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qo'layliklar majmuasini o'zida aks ettirgan voqelikdir. Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini yaratishdan iborat.

## 2.1-jadval

## Mamlakatning investitsiya muhiti va uni belgilovchi omillar

Omillar	Mazmuni
Iqtisodiy holat	Mamlakat to'lov balansining holati, valyuta-pul tizimi barqarorligi, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanganligi, ichki bozor sig'iminining kattaligi, inflyatsiya darajasi, yalpi ichki mahsulot, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari.
Huquqiy baza	Yangi sharoitlarga mos keladigan, mamlakat va uning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqaradigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Qonunlari, respublika Prezidentining farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari, tegishli nizom va yo'riqnomalarning mavjudligi
Tabiiy xom ashyo resurslari	Mineral, xom ashyo, yoqilg'i-energetika va suv resurslari zaxiralari, qishloq xo'jaligi xom ashyosini ishlab chiqarish hajmlari
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsizlik darajasi, xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi, aholining savodxonligi
Ishlab chiqarishning texnik bazasi	Asosiy ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning foydalanish muddati, asosiy fondlarning eskirishi darajasi
Ilmiy-texnika salohiyati	Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmlari, investitsiya risklari darajasi, ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari sohasini rivojlantirish holati, mahsulotning fan sig'imkorligi katta va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish
Moliya-kredit tizimi	Soliq va kredit siyosati, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining foydalilik va rentabellik darajasi, narx siyosati
Infratuzilma	Bank tizimining rivojlanishi holati, transport, kommunikatsiya xizmatlari va mexmonxona xo'jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug'urta sohasi tarmog'ining ishonchliligi
Ekologik vaziyat	Atrof-muhitning ifloslanish darajasi, radiatsion fon, zararli chiqindilar, tabiiy iqlim va uning o'zgarishi

Mamlakatning investitsiya muhitini shakllantiradigan omillar majmuini 2.1-jadval orqali ifodalash mumkin.

Har qanday davlatga investitsiyalarning kirib kelishi va rivojlanishi mazkur mamlakatdagi investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liq

bo'ladi. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar, asosan, to'rt guruhga bo'linib, ular huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tashkil etadi (2.2-jadval).

## 2.2-jadval

### Investitsiya muhiti holatini belgilovchi kengaytirilgan omillar

Ta'sir etuvchi omillar guruhi	Ko'rinishlari
Siyosiy omillar	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Davlatning investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalar bo'yicha siyosati</li> <li>2. Davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi</li> <li>3. Mamlakatning xalqaro shartnomalarga qo'shilganlik darajasi</li> <li>4. Mamlakatning xalqaro bitimlarga rioya qilishi</li> <li>5. Siyosiy ahvolning barqarorligi (siyosiy harakatlar, to'qnashuvlar, qo'shni davlatlarning osoyishtaligi)</li> <li>6. Siyosiy hokimiyatning maqsadli harakati</li> <li>7. Davlat apparatining samarali ish yuritishi</li> <li>8. Ko'p partiyaviylik va siyosiy guruhlarining mavqei</li> <li>9. Soliq, valyuta, narx, pul-kredit siyosatining investitsiya siyosatiga uyg'unligi</li> <li>10. Mamlakatdagi ekologik vaziyat va hukumatning ekologik sog'lomlashtirish bo'yicha siyosati ko'lami</li> </ol>
Iqtisodiy omillar	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli</li> <li>2. Inflyatsiya darajasi</li> <li>3. Soliq imtiyozlari</li> <li>4. Bojxona tartibi</li> <li>5. Mamlakatning tabiiy va xom ashyo resurslari holati</li> <li>6. Ishchi kuchi holati va qiymati</li> <li>7. Ishchi kuchidan foydalanish tartibi</li> <li>8. Muayyan tovarlar uchun talab va taklif</li> <li>9. Raqobat va bahoning erkinligi</li> <li>10. Valyuta konvertatsiyasi va milliy valyuta kursining barqarorligi</li> <li>11. Bank foiz stavkalari</li> <li>12. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari</li> </ol>



	13. Mamlakatning geografik-hududiy jihatdan joylashuvi (tabiiy ofatlar, dengiz va quruqlik yo'llari, iqlim sharoiti)
Ijtimoiy omillar	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xususiy mulk hamda xorijiy investitsiyalarga nisbatan mahalliy aholi munosabati</li> <li>2. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli</li> <li>3. Aholining mafkuraviy qarashlari va ularning turli-tumanligi</li> <li>4. Mamlakatda turli millatlikka nisbatan mavjud munosabat</li> <li>5. Aholining savodxonlik darajasi</li> <li>6. Ishchi-mutaxassislar malakasi, ko'nikmalari va tajribalarining o'sib borishi</li> <li>7. Yangiliklar va turli xil ixtirolarga aholining munosabati va ularni qabul qilish darajasi</li> </ol>
Huquqiy omillar	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Investitsiya faoliyati huquqiy asoslarining mustahkamlik darajasi</li> <li>2. Investitsiya faoliyatini bevosita ta'minlovchi huquqiy asosning mustahkamlik darajasi</li> <li>3. Investitsiya faoliyatining me'yoriy asoslari (farmonlar, qarorlar, qonunlar, nizomlar, yo'riqnomalar va h.k. )</li> </ol>

O'zbekistonda jahon talablariga mos, milliy xususiyatlarga xos investitsiya dasturlari va loyihalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun quyidagi qo'shimcha chora-tadbirlarni bajarish lozim bo'ladi: iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni proporsional jalb etishning umumlashgan aniq dasturini ishlab chiqish; tarmoq xususiyati va iqtisodiyot rivojiga qarab erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish; tarmoqlardagi mas'ul xodimlarning xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi faolligi va mas'ulligini oshirish; tarmoqlarda aloqa, telekommunikatsiyani rivojlantirish orqali investorlarning erkin va to'liq axborotlar olishini ta'minlash. O'zbekistonda xorijiy investorlar faoliyati uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va xorijiy investorlarni respublikaga ko'proq jalb etish maqsadida qator soliq va bojxona imtiyozlari belgilangan.

Har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligidadir. Xuddi ana shu omil xorijlik investorlarning boshqa mamlakatga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni kiritish imkoniyatini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishda juda muhimdir. O'zbekistondagi investitsiya muhitining asosiy xususiyati uning Markaziy Osiyoda eng barqaror mamlakat ekanligidadir. Albatta, bu erda xorijiy investor u yoki bu mamlakatda o'z kapitalining xavfsizligini ta'minlash masalalariga, birinchi navbatda, e'tiborini qaratadi. Shundan keyin, u o'z kapitalidan foyda olishning qanchalik samaradorligi haqida o'ylab ko'radi. Demak, investitsiya muhiti investor uchun shunday bir shart ekanki, unda investor u yoki bu mamlakatga kiritayotgan kapitalning riski haqida o'ylab kuradi.

O'zbekistonda investitsiya muhiti yildan-yilga barqarorlashib borayotgan bo'lsa-da, lekin, hozircha iqtisodiyotga yirik hajmdagi investitsiyalar asta-sekinlik bilan kirib kelmoqda. Bunga: O'zbekistonning dengiz savdo yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqa olmasligi; telekommunikatsiya aloqalarining sust rivojlanganligi; iqtisodiyotda milliy valyuta qadrining erkin almashadigan valyuta kursiga nisbatan pastligi; ayrim qonunlar va me'yoriy hujjatlardagi kamchiliklarning mavjudligi va xususan, foydali qazilmalar bo'yicha maxsus qonunlarning qabul qilinmaganligi; kredit tizimidagi, valyutani konvertatsiyalashdagi mavjud kamchiliklar va qimmatli qog'ozlar bozorining endigina rivojlanib kelayotganligi kabilar sabab bo'lmoqda, deb bilamiz.

Demak, bugungi kunda respublika iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga yaqinlashtirish zarur. Buning uchun tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi sub'ektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatish, tovarlarni eksport-import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat olib borish lozim. Bunda investitsiya riskini e'tiborda tutmoq juda muhimdir. Hissani cheklash; narxlarni nazorat qilish; tashqi savdo operatsiyalarini litsenziyalash va boshqalar.

Qulay investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini

to'rt jihatdan olib qarash mumkin, ular: soliq to'lashdan vaqtinchalik ozod qilish; soliq stavkasini kamaytirish; soliqqa tortiladigan bazani toraytirish; soliq majburiyatini bajarishni kechiktirish (soliq krediti). Qayd qilingan rag'batlar u yoki bu darajada xorij investitsiyalar ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tatbiq etiladi. Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining amal qilishini, shuningdek, investitsiyalarni inson kapitaliga, texnologik o'sish va texnika bilimlari sohalarini rivojlantirishga, kengaytirishga ham joriy qilish kerak. Bularning barchasi O'zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bu model xorijiy investorga ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida mukammal ma'lumot to'plash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda xorijlik sheriklar harakatlari motivatsiyasini anglash, xorij investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini isloh qilish imkoniyatlarini yaratadi.

O'zbekistonda intellektual salohiyatni o'stirish uchun kapital qo'yish kelajakda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning eng asosiy omillaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bu sohada kapital qo'ygan investorlarga soliq imtiyozlarini berish o'ta muhimdir.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining jadal sur'atlarda o'sishini quyidagi omillar belgilab bermoqda:

– mamlakatdagi investitsiya muhitining barqarorligi. Bu yirik investitsiya loyihalari uzoq muddatga mo'ljallab amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra xorijiy investorlarga biznes olib borish uchun qulay investitsiya muhiti, ishonch kerak;

– valyuta kursini tartibga solishdagi ijobiy o'zgarishlar. Milliy valyutaning diversifikatsiyalanishuvi mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarga xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar va import qilinadigan tovarlarga nisbatan raqobat kurashida ma'lum afzallikni beradi;


Yuqorida ta'kidlaganimizdek, respublikada muayyan darajada xorij kapitalini qabul qilish tizimi shakllangan. Bunda xorij kapitaliga nisbatan davlat siyosatini ifoda etadigan huquqiy me'yorlar, qoidalar va muassasalar majmui

nazarda tutiladi. Xorij kapitalini qabul qilish tizimi investitsiya muhitining tarkibiy qismiga kiradi va ayni paytda mustaqil hisoblanadi, chunki bu tizimni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu tizimning elementlari quyidagilardan iborat; xorij kapitali uchun soliq va bojxona imtiyozlarini berish; foydani boshqa iqtisodiyotga o'tkazishning qulay rejimi; milliy lashtirishdan kafolatlar; ro'yxatdan o'tkazishning oddiy tartib qoidalari; kontsessiyalar berish; erkin iqtisodiy zonalar barpo etish; aktsiyadorlik kapitalida milliy eksport tarkibidagi asosiy tovarlarga (oltin, mis, paxta) qulay narx kon'yunkturasi yirik milliy eksportyorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirdi va o'zlarining investitsiya dasturlarini moliyalashtirishning faollashuviga, kengayishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, o'zaro bog'liq tarmoqlar mahsulotiga talabning o'sishiga sababchi bo'ldi;

– davlat moliyasi va davlat qarzigina xizmat ko'rsatish holatining mo'tadillashuvi, mamlakatimizga 18 oylik import miqdoriga teng oltin-valyuta zaxiralarining jamlanishiga, byudjet taqchilligini bartaraf etishga va 2005 yildan boshlab byudjet profitsitiga chiqishga imkon berdi


Xullas, investitsiya muhiti investorlarning samarali va erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilgan muhit bo'lib, uning investorlar uchun qulayligi, jozibadorligi unga ta'sir etuvchi huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning ta'sir darajasiga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2017 yilda 68,4 trln. so'm (dollar ekvivalentida 13,4 mlrd. AQSH dollari) yoki 2016 yilga nisbatan 120,4 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1991 yilga nisbatan 5,1 martta, 2000 yilga nisbatan 6,6 martta, 2005 yilga nisbatan 5,1 martta, 2010 yilga nisbatan 2,0 martta va 2015 yilga nisbatan 129,7 % ga ko'paydi.



**2.1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar.**

YAIMga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 2017 yilda 26,9 %ni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan 2,8 % punktga ko'paydi (1991 yil 18,8 %, 2000 yilda 22,9 %, 2005 yilda 19,9 %, 2010 yilda 24,6 % va 2015 yilda 24,3 %ni tashkil etgan).



**2.2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning YAIMdagi ulushi, %da.**

2017 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar bo'yicha tarkibini ko'radigan bo'lsak, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 60,5 %i Toshkent shahri, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida (mos ravishda jami investitsiyalarning 19,8 %i, 16,6 %i, 15,9 %i, va 8,2 %i ) o'zlashtirildi. Bu hududlarda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalariga Kandim konlar guruhini o'zlashtirish va gazni qayta ishlash majmuasi qurilishi, Hisor investitsiya bloki va Ustyurt hududida uglevodorod konlariga ishlov berish va ishlab chiqarish, Sho'rtan gaz kimyo majmuasida tozalangan metan asosida suyultirilgan yoqilg'i


ishlab chiqarish, gazni oltingugurtdan tozalovchi 3 ta yangi blok qurilishi, Yoshlik 1 metall konini o'zlashtirish kabilarni keltirish mumkin.

Investitsiya faolligi ko'proq Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida kuzatildi (2016 yilga nisbatan 1,2 – 1,6 marta ko'payish). Qoraqalpog'iston Respublikasida esa o'tgan yilga nisbatan asosiy kaitalga investitsiyalar 42,4 %ni tashkil etdi.

Respublika bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni aholi jon boshiga ko'radigan bo'lsak, 2017 yilda bu ko'rsatkich 2016 yilga nisbatan 18,4 % ga oshib, 2 112,6 ming so'mga yetdi.


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar 2017 yilda Buxoro viloyatida 6123,3 ming so'm yoki o'tgan yilining mos davriga nisbatan 154,3 % kuzatildi. Mos ravishda Toshkent shahrida - 5546,4 ming so'm yoki 119,5 %, Navoiy viloyatida - 4041,4 ming so'm yoki 106,0 %, Qashqadaryo - 3479,7 ming so'm yoki 128,8 %, Toshkent viloyatida - 1962,6 ming so'm yoki 120,5 %ni tashkil etdi. .

Jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 62 %dan ortig'i quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo'naltirildi: tog' – kon sanoati - 20,8 %, ishlab chiqarish sanoati - 17,9 %, tashish va saqlash - 9,3 %, elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash, havoni konditsiyalash - 8,0 %, ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta'mirlash - 3,7 %, axborot va aloqa - 2,8 %.



**2.3-rasm. 2017 yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish surati, %da.**

Jami asosiy kapitalga investitsiyalardan ishlab chiqarish sanoatida o'zlashtirilgan investitsiyalarning ulushi 2016 yilga nisbatan 5,9 % punktga oshdi. Ulardan: xom neft va tabiiy gaz - 4,3 % punkt, metal rudalar qazib olish - 0,6 %. Mos ravishda, quyidagi faoliyat turlarida ham o'sish kuzatildi: elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash, havoni konditsiyalash - 2,3 %, axborot va aloqa, moliyaviy va sug'urta faoliyati - 0,5 % punktga ko'payish. Jami asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibidagi ulushi bo'yicha kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishda - 3,7 %, elektr uskunalari ishlab chiqarish - 0,3 %, ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va motosikllarni ta'mirlash - 1,4 %, tashish va saqlash - 2,7 %, professional, ilmiy va texnik faoliyat - 0,2 %, ovqatlanish va yashash bo'yicha xizmatlar - 0,2 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash - 0,1 % va ta'lim - 0,6 % kamayish kuzatildi.



#### **2.4-rasm. 2017 yilda Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan %da.**

Nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlarning jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2017 yilda 85,2 %ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2015 yilga nisbatan 1,5 % punktga ko'paydi (mos ravishda 2005 yilga nisbatan 16,1 % punkt, 2010 yilga nisbatan esa 7,0 % punktga ko'paygan).

2017 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy qismi, jami investitsiyalarning 52,9 %i bino va inshootlar qurilishiga yo'naltirildi. Asosiy fondlarning faol qismini rivojlantirishga investitsiyalarning ulushi 2016 yilda 41,0 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda 38,3 %ni tashkil etib, 2,7 % punktga (2005 va 2010 yillarda 1,0 %ga, 2015 yilda esa 1,2 % punktga) kamaydi.

Mashina, uskuna, transport vositalariga investitsiyalarning hududlar tarkibida quyidagilar salmoqli hajmlarni o'zlashtirdi: Qashqadaryo viloyati – 56,0 %, Navoiy viloyati – 43,2 %, Surxandaryo viloyati – 39,5 %, Toshkent shahri – 58,1 % va Toshkent viloyati – 58,0 %.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqirish tarkibida rekonstruksiya va modernizatsiya qilish 2016 yilga nisbatan 36,8 %ga oshdi, ularning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 22,1% ni tashkil etdi.

Rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha Toshkent shahrida - hududdagi jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 29,3 %i, shuningdek, Toshkent viloyatida - 8,8 %, Navoiy viloyati - 8,1 %, Samarqand viloyati - 8,0 %, Buxoro viloyati - 6,2 %, Qashqadaryo viloyatida - 6,4 %i o'zlashtirildi. 2017 yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalarning 61,2 %i obektlarning yangi qurilishiga yo'naltirildi. Shu bilan birga, mavjud obektlarni rekonstruksiya qilishga 22,1 %i, kengaytirish uchun 1,0 % va boshqa yo'nalishlarga 15,7 % investitsiyalar yo'naltirildi. 2017 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning 55,5 %i korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, qolgan 44,5 %i jalb etilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi. 2016 yilga nisbatan korxonalar va aholining o'z mablag'lari ulushi 8,4 % punktga ko'paydi.

Davlat byudjeti mablag'ining jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 5,1 %ni tashkil etib, 2016 yildagiga nisbatan 0,5 % punktga ko'paydi. 2017 yilda bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarz mablag'lari ulushi 13,3 %ni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan 1,8 % punktga ko'paydi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 2016 yilda 22,1 % bo'lgan bo'lsa, joriy yilda 25,1 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 3,0 % punktga ko'paydi.



Davlat byudjetidan investitsiyalar asosan O'zbekiston Respublikasi infratuzilmasini rivojlantirish, ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash va turmush tarzini yaxshilash maqsadlaridagi manzilli investitsiya dasturini bajarishga yo'naltirildi. 2017 yilda davlat byudjeti mablag'larining asosiy qismi: Toshkent shahrida -28,0 % (davlat byudjeti mablag'i hisobidan moliyalashtirilgan jami investitsiyalardagi ulushi), Sirdaryo viloyatida - 8,7 %, Toshkent viloyati - 7,4 %, Surxondaryo viloyatida - 7,2 %, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida - 7,0 % dan o'zlashtirildi.

2017 yilda Davlat maqsadli jamg'armalari, tiklanish va taraqqiyot, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armalari hisobidan 8245,1 mlrd. so'm o'zlashtirildi, ulardan 13,6 % ini Umum ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini kapital ta'mirlash va jihozlash, rekonstruksiya qilish jamg'armasi hisobidan (1121,2 mlrd.so'm), Respublika yo'l jamg'armasi 10,1 % (834,1 mlrd.so'm), OTMLarining moddiy texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi 2,9 % (238,3 mlrd.so'm), Sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi 2,5 % (202,3 mlrd.so'm), tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 69,0 % (5692,1 mlrd.so'm) va bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 1,9 % (157,1 mlrd.so'm) investitsiyalar o'zlashtirildi.

### **2.3 " Jahon Ramzo" mehmonxonasining tavsifi va ko'rsatiladigan xizmat turlari.**

Samarqand o'ziga xosligi bilan ko'plab turistlarni o'ziga jalb qilib, turizm shahriga aylangan shahar hisoblanadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda turizm sektorlaridan biri bo'lmish joylashtirish vazifasini bu shaharda ham boshqa ko'plab joylar kabi mehmonxonalar bajaradi. Bunda mehmonxona qanchalik shaharga yaqin, qulay joyda joylashgan bo'lsa shunchalik turistlarni o'ziga jalb qiladi va ularning qayta shu yerga kelishlarini mehmonxonada ko'rsatilgan xizmatlar sifati ta'minlaydi. Bugungi amaliyot hisobtimiz ana shunday ijobiy xislatlarga ega bo'lib, shahrimizda turizmni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shayotgan "Jahon palace" mehmonxonasi va mamlakatimizda umumiy faoliyat ko'rsatayotgan mehmonxonalarning rivojlanish darajasi, ularda mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati haqida hisoblanadi. "Jahon Ramzo" mehmonxonasi Samarqanddagi klassik stilda yaratilgan eng yangi mehmonxonalardan biri hisoblanadi. Mehmonxona Samarqand shahrining markazida joylashgan bo'lib, Temiryul Vakzal maydonidan mehmonxonagacha masofa 15 minutni tashkil etadi. Mehmonxonaning o'ziga xosligi shundaki, u shaharning yangi va eski qismini o'ziga xos uyg'unlik bilan birlashtirib turadi. Shu bilan birga mehmonxona xizmatlarning yaxshi, sifatli ko'rsatilishini ta'minlaydi. Mehmonxona hashamatli ikki qavatli bino va ajoyib landshaftga ega. Shuningdek, mehmonxona 22 ta nomerdan iborat bo'lib, har bir xona takrorlanmas stilda bezatilgan. Mehmonlarga konferens – zal, mashq qilish zali, ochiq osmon ostidagi basseyn hamda Samarqanddan estalik sifatida turli suvenirilar xarid qilish mumkin bo'lgan magazinlar xizmat ko'rsatadi. Mehmonxona xodimlari mijozlarga ta'tillari takrorlanmas, ajoyib bo'lishi uchun mehmondo'stlik munosabati yuzasidan xushmuomalalik bilan xizmat ko'rsatadilar. Xizmatlar yakka holda ham, guruh holda ham ko'rsatiladi. Mijozlarga xizmatlar ular Samarqandga kelib qo'ngandan boshlab, to ular o'z vatanlariga qaytguncha bo'lgan davrda ko'rsatiladi.

## *Mehmonxona xizmatlari*

“Jahon Ramzo” mehmonxonasi o`z mijozlariga quyidagi xizmatlarni taklif etadi:

- ✓ Milliy hamda yevropacha taomlardan bahramand bo`lish imkoniyatini beruvchi - Restoran;
- ✓ Nonushta uchun Shved stoli;
- ✓ Xonalar uchun 24 soatli xizmatlar;
- ✓ Konferensiya zali;
- ✓ Wi-fi;
- ✓ Basseyn;
- ✓ Tozalash xizmati (ximchistka)
- ✓ Transfer;

## *Restoran*

“Jahon Ramzo” mehmonxonasining Restorani 44 kishiga mo`ljallangan bo`lib, toza va yengil atmosferani yaratib, ta`minlab beradi. Mehmonxonada har kungi nonushta mehmonxona hisobidan Shved stoli usulida taqdim etiladi. Bu mehmonlarga o`zbekona milliy taomlar va yevropacha taomlardan tanavvul qilish imkonini beradi. Yozgi issiq kunlarda esa nonushta mehmonxona hovlisida toza, salqin ayvonda tashkil qilib beriladi. Mijozlar o`zlari xohlagancha mehmonxona bari ichimliklaridan foydalanishlari mumkin. “Diyora” mehmonxonasining restorani qulay va ixcham bo`lib, o`z mijozlariga yanada yaxshi sharoitda ovqatlanishlarini ta`minlaydi.



## ***Basseyn***

Mehmonxonada ochiq osmon ostidagi basseyn mavjud bo`lib u faqat mehmonxona mijozlari uchun xizmat qiladi. Bu esa yuqori sifatli xizmat ko`rsatish ekanligidan dalolat beradi.



## ***Konferensiya zali***

“Jahon Ramzo” mehmonxonasidagi konferensiya zali har qanday turdagi majlislar-u, muhokamalarni audio – video ko`rinishlarda o`tkazish imkonini beradi.



## *Mehmonxonona nomerlari*

“Jahon Ramzo” mehmonxonasi 2 qavatli binodan iborat bo`lib, ichki ko`rinishi o`ziga xos go`zalligi va ichki hovli tomoni o`ziga xos tabiatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Mehmonxonada 22 ta xona mavjud bo`lib, har bir xona turlicha bezatilgan.

Mehmonxonada:

- 2 ta triple (3 kishilik);
- 19 ta twin (2 kishilik)

xonalari mavjud.



Barcha xonalarda konditsioner, katta ekranli televizor, mini – bar, telefon, internet va vanna xonalari mavjud.

Mijozlarga sifatli xizmat ko`rsatilishi mehmonxonona rahbariyati tomonidan nazorat qilinadi.





Xonalar qulaylik va shinamlik asosida qurilgan. Xonani bron qilish turli internet saytlar, [www.jahon-palace.com](http://www.jahon-palace.com) sayti orqali, [info@jahon-palace.com](mailto:info@jahon-palace.com) orqali hamda +99866234-53-00 fax +99866234-0708 orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bronlashtirish amalga oshirilgandan so`ng belgilangan muhlat ichida xona mijozning nomiga ro`yhatdan o`tkazilib, rasmiylashtiriladi.

### **III-BOB. MEHMONXONA SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH IMKONIYATLARI**

#### **3.1 Mehmnoxona sohasini horij tajribasini qo'llash oqali rivojlantirish**

Bugungi kunda mehmonxona zanjiri jahon mehmonxona biznesida yangilik hisoblanmaydi. Yagona markazdan boshqariladigan mehmonxonalar yarim asr oldin paydo bo'lgan, lekin bu boshqarish keng ommaviylashmadi. Ikkinchi jahon urushi oxirida mehmonxona zanjiriga kiruvchi mehmonxonalar ko'paya boshladi. Urush tugaganidan so'ng esa bozorda mehmonxona zanjirlari qad ko'tardi. "Hilton", "Statler" va "Sheraton" birinchi mehmonxona zanjirlari markalari hisoblanib, bu mehmonxona zanjirlari tez sur'atlar bilan o'sdi. "Statler" konservativ kompaniyasi o'zining mehmonxonalarini Los Anjeles va Vashingtonda, keyinchalik esa Dallas va Stratfordda barpo etildi. Bu kompaniyaga teskari bo'lgan "Hilton" va "Sheraton" mehmonxona zanjirlari esa tez o'sishni kafolatlaydigan yo'lni tanladi ya'ni, mavjud bo'lgan mehmonxonalarni sotib olishni boshladi. Ikkita kompaniya ko'chmas mulkni tez va ko'p sotishi va sotib olishi natijasida yirik masshtabli savdo-sotiqni qondirish maqsadida maxsus kartochkalar kiritishiga to'g'ri keldi. Bu ikki kompaniyaning barcha xarajatlari oqlandimi yo'qmi ahamiyatsiz edi, chunki har ikki kompaniya ham o'zining birinchi darajali boshqara olish qobiliyatini ko'rsata oldi.

Hozirgi kunda mehmonxona zanjirlari mustaqil mehmonxonalardan bir necha barobar hajmda foyda olayotganini anglash qiyin emas. 1980 yili AQSHning 62% nomerlar fondi birlashganini ko'rish mumkin. O'n yildan so'ng esa bu ko'rsatkich 75%ga, 2000 yilda 90%ga ko'tarildi. Bunday tez o'sishning sababi nimada bo'lishi mumkin? Bu savolga eng qisqa javob – samaradorlikdir. Mustaqil mehmonxona bozorda kuchli raqobatga duch keladi. Ularda odatda samarador siyosatga ega mehmonxona zanjirlariga qarshi uchta alternativ yo'l bo'ladi.

Birinchidan, mustaqil mehmonxonalar o'zi taklif etadigan narxni pasaytirishi mumkin. Bu yo'l juda mashhur, shu bilan birga juda xavfli.

Ikkinchidan, agar mustaqil mehmonxonaga investitsiya kiritilsa, ular investitsiyani modernizatsiya, yangilik va taraqqiyotga yo'naltirishi mumkin. Bu

yo'l yetarlicha oqilona yo'l hisoblanib, ko'pgina mustaqil mehmonxonalar shu yo'lni tanlashadi.

Uchinchi yo'l, biror – bir mehmonxonani sotish orqali foyda olish, ya'ni sotilgan mehmonxona puli orqali boshqa ob'yektlarni rivojlantirishdir. Lekin bu yo'l shunday vaqtda ijobiy samara beradiki, qachonki biror mehmonxona zanjiri boshqaruvchisi ma'lum hududning bozoriga kirishni rejalashtirayotgan bo'lsa va yangi mehmonxona qurish emas balki, mavjud mehmonxonadan foydalanishni maqsad qilgan bo'lsa.

O'zbekistonda ham o'ziga xos milliy mehmonxona zanjirlari mavjud. Bularga: "Malika", "Asia Hotels" mehmonxona zanjirlarini kiritish mumkin.

"Malika" mehmonxona zanjiri Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida va "Asia Hotels" mehmonxona zanjiri esa Toshkent, Samarqand, Buxoro, Fargona shaharlarida faoliyat yuritmoqda. Ushbu o'ziga xos mehmonxona zanjirlari hali jahon amaliyotidagi zanjirlarga qo'yilgan talablarga javob bermasada, har holda o'zining faoliyat strategiyasini ishlab chiqqan.

Mehmonxona zanjirlarining ustunlik tomonlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Yirik hajmdagi tovar va xizmatlarni ulgurji narxda sotib olish. Mehmonxona zanjiri boshqaruvchisi bir necha ob'ektlarni boshqarar ekan, u bir martaga yirik va ulgurji narxlarda nomerlar uchun asbob-uskunalar, tozalovchi moddalar va axborot asbob-uskunalarini sotib oladi.

Ishchi - kuchi resurslari. Mehmonxona zanjirlari o'zining xodimlarini o'qitish uchun yagona o'qitish markazidan foydalanadilar. Bu esa alohida o'qitish, harajatlarini bir necha barobarga kamaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, mehmonxona zanjiriga kiruvchilar yuqori darajali mutaxassislardan foylanadilar. Agar ular mustaqil bo'lganida bunday yuqori tajribali mutaxassislardan foydalanishga mablag' topa olmasliklari mumkin edi.

Reklama va targ'ibot. Mustaqil mehmonxonalar uchun gazetalarda, ko'rgazmali jurnallarda, radio va televideniyada reklama berish uchun juda katta mablag' sarflashiga majbur bo'ladi. Lekin mehmonxona zanjiriga kiruvchilar bu



harajatlarni o‘zaro bo‘lishadi va harajatni bir necha baravarga kamaytirishga erishishadi. Bundan tashqari mehmonxona zanjirlarining brendi mijozlar uchun qo‘shimcha reklama bo‘lib xizmat qiladi.

Bronlashtirish (band qilish). Markazlashgan bronlashtirish tizimi mehmonxona zanjirining a‘zolari biznesini birlashtirishga yordam beradi. Bir mehmonxona zanjiri katta rezervatsiyalash qobiliyatiga ega. Lekin mustaqil bo‘lganda katta hajmdagi rezervatsiyaga imkoniyati yetmaydi va mijozlar raqobatchilarga ketib qolishlari mumkin.

Moliyalashtirish. Bir necha mehmonxonalarni moliyalashtirish bitta mehmonxonani moliyalashtirishdan ko‘ra ancha oson hisoblanadi. Mehmonxona zanjirlariga kapitallarni va ularni diversifikatsiyalashga yoki samaradorligini oshirishga safarbar qilish osonroqdir.

Buxgalteriya, marketing tadqiqotlari, qurilish va ko‘chmas mulk operatsiyalarining markazlashuvi. Bu yo‘nalishlardagi ishlar bilan band bo‘lgan xodimlar mehmonxona zanjirlariga kiruvchi barcha mehmonxonalar faoliyatini yurita oladilar. Bu bilan mehmonxona zanjirlari mustaqil mehmonxonalaridan ko‘ra bir necha barobar ko‘p foyda oladi.

Dunyodagi birinchi “Cezar Ritz” mehmonxona zanjiri Yevropada paydo bo‘lgan bo‘lsa ham, bu fenomenning taraqqiyoti va rivojlanishi AQSH mehmonxona industriyasi bilan bog‘liq.

Mehmonxona zanjirlari ta‘sir ostida mustaqil mehmonxonalar ham o‘zgarishga majbur bo‘lishdi. Mustaqil mehmonxonalar boshqaruvchilari nostandart va tez qaror qabul qilishi orqali mehmonxona zanjirlaridan ustunlikka ega bo‘lishi mumkin, lekin mustaqil mehmonxona mehmonxona zanjirlari bilan raqobatga kirishi uchun ko‘p harakat qilishga to‘g‘ri keladi va asosan harajat tarkibini rivojlantirishga e‘tibor qaratishi lozim bo‘ladi.

“Handlery Hotels Inc” kompaniyasi boshlig‘i P.Handler fikricha – “Xususiy mehmonxona egasi o‘zining holatidan kelib chiqib, raqobatda aniq afzalliklarni ko‘rsatib bera oladi. Ko‘pgina hollarda mehmonxona egasi mehmonxonani o‘zi boshqaradi. Tadbirkor sifatida u o‘z biznesiga nima kerakligini aniq va ravshan

biladi. Mehmonxona zanjirlari egasi uchun esa, bu qiyin muammo. Chunki, mehmonxona zanjiri menejeri mehmonxona uchun qayg'urishi shart emas, shunchaki bajaruvchi, xolos. Shuningdek, muammoli vaziyatlarda xususiy mehmonxona egasi muammoni tezda hal qiladi, vaholanki mehmonxona zanjirida esa bu yuqoriga tezda yetib bormaydi va bu ma'lum vaqtni talab etadi". Boshqa mehmonxona boshqaruvchisi G.Saundlarning (Plaza – Boston mehmonxonasi) fikricha, "Hozirgi kunda 74% mijozlar mehmonxona zanjirlarida qolishni afzal ko'rishadi, lekin qolgan 26% ham juda katta bozorni tashkil etadi. Men bu katta bozor uchun boshqa mehmonxonalar bilan jang qilishga roziman", deydi.

Shuni ta'kidlash joizki, mehmonxonalarining birlashish tendensiyalari asosan AQShga to'g'ri keladi. Yevropa, Osiyo, Lotin Amerikasidagi 20% mehmonxonalar birlashgan hisoblanib, qolgan mehmonxonalar mustaqil ravishda ish olib borishadi.

Mehmonxona zanjirlarining paydo bo'lishi va mehmonxonalar raqobatining oshishi. Mustaqil mehmonxonalar kuchli raqobatga dosh berishi uchun strategiyasini o'zgarishtirishga majbur bo'ldi. Biznesni saqlab qolish uchun ko'pgina mehmonxonalar mahsulot va ichimliklar sotuvini ko'paytirishga harakat qildilar. Maqsad - moliyaviy yo'qotishlarni qoplash edi. Bu yo'l hamma mehmonxonalariga ham yordam bermadi va ko'pgina mustaqil mehmonxonalarining yopilishiga olib keldi.

Yirik yuqori darajali mustaqil mehmonxonalar mehmonxona zanjirlariga qarshi hujumga o'tdi. Mehmonxona zanjirlari bunday mehmonxonalar mustaqilligiga chek qo'yishni o'z oldilariga maqsad qilib qoldilar. Ular zanjirga birlashish uchun shunday oson shartlar qo'yishdiki, mustaqil mehmonxonalar bunday shartlarga rozi bo'lmay iloji yo'q edi. Masalan: "Distinguished Hotels" group shunday yo'nalishdagi siyosatni olib bordi. Hozirgi kunda u "Preferred Hotels" nomi bilan yuqori darajadagi mehmonxonalarini bilan mashhurdir.

Yana bir misol, Robert Varner boshchiligidagi mustaqil mehmonxonalar birlashmasi. Bundan maqsad, mehmonxonalarining reklamasi birlashtirish va bronlashtirish tizimini yaxlitlashdir. Guruh bo'lib ishlash markazlashgan

xizmatlardan foydalanish uchun qulay bo‘lib, mehmonxonalar o‘z mustaqilliklarini yo‘qotmaydilar.

Mehmonxonalar mehmonxona zanjiriga bir necha yo‘llar bilan birlashish mumkin:


Vertikal integratsiya. Mehmonxona biznesida vertikal integratsiya yaqinda paydo bo‘lgan tushunchadir. Oxirgi yillarda mehmonxona kompaniyalari mijozlarining talablari bir xil emasligini ya’ni, ularning xohish- talabi qulayliklar va narxga bog‘liqligi aniqlandi. Shunga ko‘ra, ko‘pchilik mehmonxona kompaniyalari mehmonxona bozorining qariyb barcha segmentlarini o‘zlashtirdilar. Hozirda mehmonxona zanjirlarining lyuks, birinchi va iqtisod darajalari mavjud: “Choice Hotels” mehmonxona zanjirining “Clarion Inn” lyuks darajadagi, “Quality Inn”, “Quality Suites” o‘rta darajadagi, “Comfort Inn”, “Friendship Inn”, “Roadway” byudjet darajadagi va “Sleep Inn” iqtisod darajadagi mehmonxonalardir.

Gorizantal integratsiya. 1940 yillarda “Pan American” kompaniyasi o‘zining birinchi “Inter – Continental” mehmonxonasini ochganidan so‘ng, ba’zi bir aviakompaniyalar ham mehmonxonalarni sotib olib, ularni boshqarish orqali gorizantal integratsiya tajribasini o‘rgana boshladilar.

Mehmonxona birlashmalarining nufuzi va istiqbollari. Hozirda dunyoda global iqtisodiy jarayon ya’ni, Yevropa ittifoqi, AQSH va Meksika o‘rtasida imzolangan erkin savdo haqidagi shartnomaning katta ittifoqlarga ajralishi jarayoni bormoqda. Yevropa Ittifoqi nafaqat milliy savdoni cheklaydigan balki, mehnatni va kapitalni ko‘chirishni bekor qiladigan ittifoq hisoblanadi. Sanoat, savdo -sotiq va turistik aloqalarning rivojlanishi bilan bir qatorda mehmonxona xizmatiga bo‘lgan ehtiyoj ham o‘sib bormoqda. Shimoliy Amerikaning Nafta shartnomasi 3 ta mamlakat (AQSH, Kanada va Meksika) o‘rtasidagi savdo va turistlar almashinuvining o‘sishi mehmonxona biznesining rivojlanishini ham tezlashtiradi. Bundan tashqari Argentina, Braziliya, Chili, va Venesuela davlatlari ham “Amerikaning Savdo Ittifoqi” deb nomlanadigan ittifoqqa qo‘shilishlari mumkin.

Xalqaro savdo va turizmدا zamonaviy tendensiyalarning rivojini hisobga olib,

xalqaro mehmonxona korporatsiyalarini qaysi yo‘nalishda rivojlanishini osongina aniqlash mumkin. Turizm oqimi Tinch okeani mamlakatlarida 2020 yillarga borib rivojlanishi kutilmoqda. Shu bilan birga Indoneziya, Malayziya, Tayland, Vetnam va Meksika davlatlaridagi kurort mehmonxonalarini rivojlantirish ham rejalashtirilgan. Mehmonxona biznesini kelajakdagi rivoji uchun shart - sharoit mavjud bo‘lgan Sharqiy Yevropa, Rossiya va MDH tarkibida bo‘lgan mamlakatlarda ayrim mehmonxona kompaniyalari yangi binolar qurishdan ko‘ra eskilarini sotib olish strategiyasini qo‘llashmoqda.



6- diagramma. Yirik mehmonxona zanjirlarining nomer fondi

Osiyo mintaqasida Gonkongning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi uning atrofidagi qo‘shni davlatlarning iqtisodiyoti va soliq tizimini rag‘batlantirdi. Gonkongda 16,5% korporativ soliq, 15% daromad solig‘i undiriladi, kapitaldan daromad va dividendlar uchun hech qanday soliq olinmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy barqarorlik natijasida mehmonxona biznesidagi muvafaqiyatlar iqtisodiy va sotsial o‘shish bilan parallel rivojlanmoqda. Sobiq Sharqiy Yevropa ittifoqi mamlakatlari va MDH mamlakatlari mehmonxona korporatsiyalari rivojlanishi uchun ajoyib imkoniyatlar yaratilgan davlatlarga namuna bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda mehmonxona xizmatlarini bir necha o‘ziga xos rivojlanish tendensiyalariga ajratish mumkin:

Globalashuv - bir qator Amerika va Kanada mehmonxona zanjirlari dunyo bo'ylab yangi mehmonxonalar yaratishni davom ettirmoqda. Bundan tashqari xalqaro kompaniyalar Shimoliy Amerika mehmonxona sanoatiga investitsiya kiritish bilan shug'ullanmoqda.

Birlashish - bu tarmoq qanchalik rivojlansa, korporatsiyalar bir biridan uzib ketadi.

Agar mehmonxona zanjirlarining mintaqalardagi mehmonxona biznesiga ta'siri haqida gapiradigan bo'lsak, uning qonuniyligi, afzalligi hamda bozordagi kamchiliklarini ajratish mumkin.

Ko'pgina mehmonxona zanjirlari shtab kvartiralarini AQShda joylashgan bo'lib, bu mamlakatning mehmonxona biznesiga ta'siri va ishtiroki to'raligicha belgilaydi va:

Mehmonxona zanjirlari xalqaro miqyosda standart xizmat ko'rsatadi;

Bu zanjirlar juda katta tajribaga ega bo'lib, ular mahalliy mehmonxonalarga raqobatchi bo'lishi mumkin;

Mintaqalardagi iqtisodiyotni rivojlantirishni;

Shu mintaqadagi xodimlarni o'qitish va tayyorlash xizmatlarini amalga oshirishini;

Inqirozga uchragan mehmonxonalarini sotib olib qayta rekonstruksiya qilishini anglatadi;

Mehmonxona zanjirlarini ham iqtisodiy va ham madaniy nuqtai nazardan baholash mumkin. Iqtisodiy nuqtai nazardan ular mablag'ni shaharlar va viloyatlarni rivojlantirishga sarflaydilar. Xorijiy investitsiyalar mintaqalarning moliyaviy ahvoli uchun zarurdir, yangi ish o'rinlari yaratiladi, g'aznaga soliqlar tushadi. Mahalliy mehmonxonalarning tajribasi kamligi va yetarli moddiy bazaga ega emasligi sababli bu zanjirlar bilan raqobatlashishi qiyindir.

Madaniy jihati shundaki, zanjirga tegishli mehmonxona shaharning madaniy hayotida diqqatga sazovor markazga aylanadi. Mijozlarga alohida xizmat ko'rsatish va muomala qilishga juda ko'p mablag' sarflaydilar va ular muvaffaqiyat qozondilar. Bu xizmatlardan butun dunyo foydalanib sifatidan

mamnun bo'lmoqda.

Dunyodagi mehmonxona zanjirlari amaliyotini mamlakatimizda qo'llash bo'yicha quyidagilarni taklif etish mumkin:

mavjud mehmonxonalarining jahon standartlariga to'liq javob berishiga erishish;

marketing strategiyasini puxta ishlab chiqish;

reklama va targ'ibot ishlarini takomillashtirish;

internetda mehmonxonaning doimo yangilanib turuvchi veb-saytlarini ishlab chiqish va yagona tarmoqqa birlashtirish;

mehmonxonada xizmat qiluvchi xodimlar malakasini jahon standartlariga tayangan holda oshirish;

mijozlar ehtiyojlarini maksimal qondirish, yuqori darajadagi xizmatlarni shakllantirish;

narxlashtirish tizimini takomillashtirish va shu kabilar.

### **3.2. Investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari**

Jahon bozoriga kirish, marketingni rivojlantirish, aniq va ishonchli axborot bilan ta'minlanganlik, yuqori darajadagi axborot texnologiyasi tizimlaridan foydalanish, tajribali va sifatli kadrlarga ega bo'lish hamda ushbu soha bo'yicha dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishni talab etadi. Shuning uchun jadal sur'atlar va yuqori templar bilan rivojlanish investitsiyalarning ichida fan, texnika, ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlashga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'rnini oshirish zarur.

Investitsiyalarni jalb qilish uchun mamlakat quyidagilarni bajarishi lozim:

- iqtisodiyotning kelajakdagi faoliyati uchun istiqbolli va yaxshi ishlab chiqilgan rejaga ega bo'lishi kerak;
- dunyo miqyosida yuqori darajadagi nufuzga ega bo'lishi lozim;
- mamlakat ochiq aniqrog'i shaffof siyosatni olib

borishi lozim;

- mamlakatning siyosiy holati barqaror bo'lishi shart.

Investitsiyalarni jalb etishga quyidagi omillar ta'sir

ko'rsatadi:

1. Ijtimoiy omillar:

- xususiy mulk va xorijiy investitsiyalarga bo'lgan mahalliy aholining munosabati;

- ishchilar qatlamining ijtimoiy faolligi;
- jamiyatdagi demokratik ongning yaxlitlik darajasi;
- umuman barcha qatlamdagi aholining intellektual salohiyati;
- jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha ilg'or g'oyalarning mavjud

ekanligi;

2. Iqtisodiy omillar:

- iqtisodiyotning umumiy va barqaror holati;
- inflyatsiya darajasining bir maromda belgilangan parametrlarda bo'lishi;
- kredit hajmi va uning foiz stavkasi;
- iqtisodiy faol va faol bo'lmagan ishchi kuchidan foydalanish tartibi;
- valyuta kursining belgilangan me'yorda saqlanib turish;
- ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turiga nisbatan ichki va tashqi bozordagi talab hamda taklif o'rtasidagi munosabat;
- soliq imtiyozlari va soliq yukini yengillashtirish imkoniyatlari;
- bojxonadagi imtiyozlar.

3. Siyosiy omillar:

- siyosiy barqarorlik, ya'ni har bir mamlakatda hukm surayotgan tinchlilik va osoyishtalik darajasi;

- xalqaro kelishuvlarga rioya qilish va ularga amal qilish darajasi;
- davlatning iqtisodiyotda tutayotgan o'rni;
- davlat organlarining samarali faoliyat olib borayotganlik darajasi;
- investitsiyalarga nisbatan davlatning investitsion siyosati;

- davlatning turli xalqaro birjalarda ishtirok etishi va bitimlarga ega bo‘lishlilik darajasi.

Investitsiyalarni boshqarish bu turli xil qimmatli qog‘ozlarni va mol-mulk, texnikani investorlarning manfaatlari va ehtiyojlarini qondirish maqsadida foyda olish uchun professional boshqarish hisoblanadi.

Mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish konsepsiyasining asosida quyidagi muhim yondashuvlar mavjud:

- investitsion faoliyatni tanlash jarayoni sifatida ko‘rib, investitsion resurslarni jalb qilish va asoslash hamda investitsiyalash mexanizmini investitsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida foydalanish zarur.

- investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish obyektning investitsion jozibadorligini baholash bilan amalga oshiriladi;

- turli xil tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishning usullari tanlanayotganda investitsiyalash jarayonida ishtirok etayotgan investorning manfaatlari hamda mamlakatning manfaatlarining mos kelishini inobatga olish lozim;

- hukumat tomonidan loyihalarni investitsiyalashda aholi va davlat olinadigan natijalardan manfaatdor bo‘lishi shu bilan birga ijtimoiy muammolarni hisobga olish talab etiladi.

Ushbu yondashuvlar natijasida investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish konsepsiyasi haqidagi fikr va mulohazalarni umumlartirgan holda, shuni aytish lozimki har bir konseptual yondashuv mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilishi va uni yanada rivojlanishi uchun zamin yaratishi shart.

Yuqoridagi omillar investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishda muhim ro‘l o‘ynab iqtisodiyotga sezilarli ta‘sir o‘tkazib turadi.

Investitsiyalarni kiritishda, eng avvalo:

– investitsiya faoliyati subyektlarining erkinligi va tashabbuskorligini to‘liq ta‘minlash;



– maʼlum bir sohani rivoji uchun kiritilayotgan moddiy va nomoddiy boyliklarga investitsiya maqomini berish;

qonun bilan belgilangan tartibdagi investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarning yaratilishi zarur hisoblanadi. Mamlakatimizda investitsiyalarni boshqarishning quyidagi usullarni taklif sifatida koʻrsatishimiz mumkin:

- tahliliy usul, bunda jalb qilingan investitsiyalar monitoring qilinadi, investitsiyalarni jalb qilish, kiritish uslubi, shakli, yoʻnalishi qonunda belgilangan tartibda davlat tomonidan nazorat qilib boriladi.

- iqtisodiy usul, bunda iqtisodiy qulay sharoitlar yaratish orqadi jalb qilingan investitsiyalarni boshqarish mumkin;

- ijtimoiy usul, investorlarning mablagʻarini jalb qilish orqali mamlakatdagi aholi ish bilan taʼminlanadi va farovonlik darajasi oshadi;

- meʼyoriy-huquqiy usul, bunda mavjud meyoriy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali davlat tomonidan boshqariladi;

- moliyaviy usul, bunda moliyaviy ragʻbatlantirishlar orqali investorlarning mablagʻlarini boshqarish mumkin. Yaʼni asosan sodiqlarning yengillashtirilishi va foiz stavkalarining tushirilishi bilan, investorga qoʻshimcha moliyaviy imtiyozlar

yaratib, investorning mablagʻlarini boshqarish mumkin;

- informatsion usul, bunda axborot shaffofligini yaratish orqali investitsiyalarni boshqarish mumkin;

- integratsion usul, bunda chet el investorlarini jalb qilib ularga mamlakatning investorlarini bogʻlash orqali mahalliy investorlarning faolligini oshirish va yangi investitsiyalarni jalb qilib, ularni ushbu usulga asoslanib boshqarish mumkin. Shuni taʼkidlash kerakki bu usulda chet el investorning darajasi, tajribasi va imkoniyatini inobatga olgan holda unga investitsiya loyihasidan olinadigan foyda ulushini boshlangʻich yillarda yuqoriroq belgilash talab etiladi. Keyinchalik shartnomada belgilangan tartibda maʼlum vaqtdan soʻng foyda ulushi mahalliy investorniki bilan tenglashtiriladi.

- malaka oshirish usuli, bunda mahalliy yetakchi kadrlarni chet el mamlakatlaridagi loyihalarga biriktirish, orqali mamlakat kelajagi uchun zarur innovatsion va intellektual investitsiyalarni boshqarish mumkin.

Investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash ilmiy asoslangan, investitsiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni barcha shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi. Shu sababli investitsiyalarning hajmi yildan yilga o'sib bormoqda va mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish uchun katta yordam ko'rsatmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, mablag'larni eng ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish Respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir. Shularni inobatga olgan holda iqtisodiyotimizga investitsiyalarni boshqarish bo'yicha usullarni joriy qilish talab etiladi va uni amalga oshirish lozim.

### **3.3." Jahon Ramzo" mehmonxonasiga investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari**

O'zbekiston ulkan turistik salohiyatga ega hamda turizmni milliy iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega mamlakatdir. Ushbu salohiyatdan samarali foydalanish hamda soha korxonalarining samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri xisoblanadi. Bunda turizm industriyasining tarkibiy qismi hisoblangan mehmonxonalarning xo'jalik faoliyati samaradorligini va ularda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish masalalari alohida ahamiyatga ega. Shu sababli mehmonxona xo'jaligida horij tajribasini o'rganib, amalda qo'llash

orqali investitsiyalarni jalb qilish lozim. Shu sababli ham O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilni **"Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish"** yili deb nomladi. 2019-yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so'mlik yoki 2018 yilga nisbatan 16 foiz ko'p investitsiyalarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan. Bundan ko'rinib turibdiki turizm sohasi iqtisodiyotning bir bo'lagi kam harajat sarflab ko'p daromad olish imkonini beradi. Mehmonxona xizmatlari turistning o'z sayyohatidan umumiy qoniqish hosil qilishida, mamnun bo'lib, yaxshi kayfiyat va yoqimli taassurotlar bilan yurtiga qaytishida muhim o'rin tutadi. Sayyohning sayyohatdan aynan shunday taassurotlar bilan o'z yurtiga qaytishi uning takror sayyohatga kelishi hamda o'zi tashrif buyurgan turistik makon haqida ko'rgan-bilganlariga ijobiy fikr va maqtovlar bilan reklama qilishining asosiy shartidir.

Turistlar mehmonxona ichkarisiga qadam qo'ygandan to jo'nab ketguncha o'zlariga chuqur hurmat, izzat va iltifot ko'rsatilganini his etishi lozim. Shundagina mehmonxona hozirgi raqobat kurashida yengib chiqishi mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda "Jahon Ramzo" mehmonhonasida investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi takliflarni amaliyotda qo'llash orqali rivojlantirish mumkin:

- “Jahon Ramzo” mehmonxonasini tarixiy, madaniy-ma'naviy merosga boy bo'lgan hududlar markazida mehmonxona zanjirlarini tashkil etish (bundan asosiy maqsad turizm rivojlangan hududlarda mehmonxonaning filiallarini ochib, investitsiyalarni jalb qilib, qo'shimcha daromad olish va ishchi o'rinlarini yaratish);
- Mehmonxonada nomerlar fondi ya'ni bir va uch kishilik nomerlarini ko'paytirish ya'ni (bir kishilik nomer yo'q hamma nomerlar fondi ikki kishilikni tashkil etadi, uch kishiligi esa ikkita bor bu esa kam);
- Mehmonxonada narx siyosatini pasaytirish ya'ni har qanday kelgan yuqori, quyi qatlam vakillari ehtiyojiga to'g'ri kelishi (nomerlari ikki kishilik bu esa yolg'iz o'zi kelgan mehmon uchun qimmatlik qiladi);
- Mehmonxonada ko'rsatilayotgan mavjud xizmatlarni ko'rib chiqib

yangilash va asosiy xizmatlardan tashqari qo'shimcha xizmatlarni tashkil etish (mavjud ko'rsatilayotgan mehmonxona xizmatlaridan tashqari SPA, massaj, avto mashinalarni ijaraga berish, animatsion dasturlar);

- Mehmonxonani boshqarishning zamonaviy shakllarini joriy etish;
- Mehmonxonada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini iste'molchi nuqtai nazaridan o'rganish bo'yicha marketing tadqiqotlarini olib borish;
- Mehmonxona biznesi rivojlangan horijiy mamlakatlar tajribalaridan keng foydalanish;
- Mehmonxonalar va unda ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risida ommaviy axborot vositalarida hamda internet tarmoqlarida yanada ko'proq ma'lumotlar berish va reklama vositalarini kuchaytirish;
- Mehmonxonada zamonaviy axborot tizimidan foydalanishni tashkil etish;
- Hozirgi kun talabidan kelib chiqqan holda sifatli hizmat ko'rsatishni kuchaytirish, inson resurslarini boshqarishni takomillashtirish, bunda malakali hodimlar mehnatiga munosib haq to'lashni ta'minlash, ishchi hodimlarni rag'batlantirish;
- Ishchi hodimlarni uzluksiz ravishda malakasini oshirish uchun horijga jo'natib horij tajribasini o'rganib kelib amaliyotda joriy etish;
- Internet saytlar orqali hozirgi kunda mehmonxona biznesida amalga oshirilayotgan ishlar, xorijiy investorlar uchun ko'plab shart-sharoitlar, imkoniyatlar haqida habardor qilish maqsadida ma'lumotlar joylashtirish zarur.

Mehmonxona biznesida hodimning tayyorgarlik darajasi ko'rsatiladigan xizmatlar darajasiga muvofiq kelishi kerak.

## XULOSA

Tadqiqot ishda mehmonxonalarning kelib chiqish tarixi va turizmdagi ahamiyati nazariy jihatdan qarab chiqildi, bunda mehmonxona sanoati korxonalarining yuzaga kelishi qadimgi Rim bilan aloqadordir (taxminan er.av. 50-yillar). Rim Imperiyasi yirik bo'lganligi sababli amaldor va savdogarlar tez-tez tashqariga chiqib turganlar. Natijada ularni joylashtirish uchun doimiy hovli-joy va tavernalar yuzaga kelgan.

Rim davlatining asosida qat'iy sinfiy tizimning mavjudligi joy bilan ta'minlash korxonalari rivojiga ham e'tiborni kuchaytirdi. Xatto davlat amaldorlari yo'lga o'tlanishdan avval o'z qo'l ostidagilari orqali joylashish o'rnini kelishib olishga odatlandilar.

Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida "...Yuridik shaxslar belgilangan tartibda sertifikatlangan kamida 4 yulduzli darajadagi mehmonxona va motellarni foydalanishga topshirganda ular yuridik shaxslarning foyda solig'i, yer solig'i va mol-mulk solig'idan, shuningdek yagona soliq to'lovidan 5 yil muddatga ozod qilinsin..."<sup>16</sup> deb ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, ushbu farmonda mehmonxonalar va boshqa joylashtirish joylari xorijiy fuqarolarga ko'rsatiladigan turizm xizmatlari uchun tushadigan xorijiy valyutadagi tushumning 25 foizini belgilangan tartibda majburiy sotishi aytilgan.

---

Bularning barchasi mamlakatimizda mehmonxona xizmatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy siyosiy, madaniy jihatdan aloqalari tobora chuqurlashib bormoqda. Aytish mumkinki, mamlakatimiz jahon hamjamiyatining ajralmas bir qismiga aylanmoqda. Xozirgi kunda Rossiya, Yaponiya va bir qator Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi yetakchi davlatlar bilan hamkorlikda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi va shuningdek, olib borilayotgan investitsiya faoliyatining o'sish sur'atlari investitsiya muhitiga bog'liq bo'ladi. Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlab beradi.

Bugungi kunda mehmonxona zanjiri jahon mehmonxona biznesida yangilik hisoblanmaydi. Yagona markazdan boshqariladigan mehmonxonalar yarim asr oldin paydo bo'lgan, lekin bu boshqarish keng ommaviylashmadi. Ikkinchi jahon urushi oxirida mehmonxona zanjiriga kiruvchi mehmonxonalar ko'paya boshladi. Urush tugaganidan so'ng esa bozorda mehmonxona zanjirlari qad ko'tardi. "Hilton", "Statler" va "Sheraton" birinchi mehmonxona zanjirlari markalari hisoblanib, bu mehmonxona zanjirlari tez sur'atlar bilan o'sdi.

O'zbekistonda ham o'ziga xos milliy mehmonxona zanjirlari mavjud. Bularga: "Malika", "Asia Hotels" mehmonxona zanjirlarini kiritish mumkin.

"Malika" mehmonxona zanjiri Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida va "Asia Hotels" mehmonxona zanjiri esa Toshkent, Samarqand, Buxoro, Fargona shaharlarida faoliyat yuritmoqda. Ushbu o'ziga xos mehmonxona zanjirlari hali jahon amaliyotidagi zanjirlarga qo'yilgan talablarga javob bermasada, har holda o'zining faoliyat strategiyasini ishlab chiqqan.

Mehmonxona zanjirlarining ustunlik tomonlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Yirik hajmdagi tovar va xizmatlarni ulgurji narxda sotib olish. Mehmonxonada zanjiri boshqaruvchisi bir necha ob'ektlarni boshqarar ekan, u bir martaga yirik va ulgurji narxlarda nomerlar uchun asbob-uskunalar, tozalovchi moddalar va axborot asbob-uskunalarini sotib oladi.

Ishchi - kuchi resurslari. Mehmonxonada zanjirlari o'zining xodimlarini o'qitish uchun yagona o'qitish markazidan foydalanadilar. Bu esa alohida o'qitish, harajatlarini bir necha barobarga kamaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, mehmonxonada zanjiriga kiruvchilar yuqori darajali mutaxassislardan foylanadilar. Agar ular mustaqil bo'lganida bunday yuqori tajribali mutaxassislardan foydalanishga mablag' topa olmasliklari mumkin edi.

Reklama va targ'ibot. Mustaqil mehmonxonalar uchun gazetalarda, ko'rgazmali jurnallarda, radio va televideniya da reklama berish uchun juda katta mablag' sarflashiga majbur bo'ladi. Lekin mehmonxonada zanjiriga kiruvchilar bu harajatlarni o'zaro bo'lishadi va harajadni bir necha baravarga kamaytirishga erishishadi. Bundan tashqari mehmonxonada zanjirlarining brendi mijozlar uchun qo'shimcha reklama bo'lib xizmat qiladi.

Bronlashtirish (band qilish). Markazlashgan bronlashtirish tizimi mehmonxonada zanjirining a'zolari biznesini birlashtirishga yordam beradi. Bir mehmonxonada zanjiri katta rezervatsiyalash qobiliyatiga ega. Lekin mustaqil bo'lganda katta hajmdagi rezervatsiyaga imkoniyati yetmaydi va mijozlar raqobatchilarga ketib qolishlari mumkin.

Moliyalashtirish. Bir necha mehmonxonalarni moliyalashtirish bitta mehmonxonani moliyalashtirishdan ko'ra ancha oson hisoblanadi. Mehmonxonada zanjirlariga kapitallarni va ularni diversifikatsiyalashga yoki samaradorligini oshirishga safarbar qilish osonroqdir.

Buxgalteriya, marketing tadqiqotlari, qurilish va ko'chmas mulk operatsiyalarining markazlashuvi. Bu yo'nalishlardagi ishlar bilan band bo'lgan xodimlar mehmonxonada zanjirlariga kiruvchi barcha mehmonxonalar faoliyatini yurita oladilar. Bu bilan mehmonxonada zanjirlari mustaqil mehmonxonalar dan ko'ra bir necha barobar ko'p foyda oladi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti asosan investitsiyalarga bog'liqdir. O'zbekiston horijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari tobora chuqurlashib bormoqda. Shu sababli ham milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Har bir mamlakatning investitsiya muhiti uning siyosiy barqarorligidadir. O'zbekistondagi investitsiya muhitining asosiy hususiyati uni Markaziy Osiyodaeng barqaror mamlakat ekanligidadir.

### **TAKLIFLAR**

- “Jahon Ramzo” mehmonxonasini tarixiy, madaniy-ma’naviy merosga boy bo’lgan hududlar markazida mehmonxona zanjirlarini tashkil etish (bundan asosiy maqsad turizm rivojlangan hududlarda mehmonxonaning filiallarini ochib, investitsiyalarni jalb qilib, qo’shimcha daromad olish va ishchi o’rinlarini yaratish);
- Mehmonxonada nomerlar fondi ya’ni bir va uch kishilik nomerlarini ko’paytirish ya’ni (bir kishilik nomer yo’q hamma nomerlar fondi ikki kishilikni tashkil etadi, uch kishiligi esa ikkita bor bu esa kam);
- Mehmonxonada narx siyosatini pasaytirish ya’ni har qanday kelgan yuqori, quyi qatlam vakillari ehtiyojiga to’g’ri kelishi (nomerlari ikki kishilik bu esa yolg’iz o’zi kelgan mehmon uchun qimmatlik qiladi);
- Mehmonxonada ko’rsatilayotgan mavjud xizmatlarni ko’rib chiqib yangilash va asosiy xizmatlardan tashqari qo’shimcha xizmatlarni tashkil etish (mavjud ko’rsatilayotgan mehmonxona xizmatlaridan tashqari SPA, massaj, avto mashinalarni ijaraga berish, animatsion dasturlar);
- Mehmonxonani boshqarishning zamonaviy shakllarini joriy etish;
- Mehmonxonada ko’rsatilayotgan xizmatlar sifatini iste’molchi nuqtai nazaridan o’rganish bo’yicha marketing tadqiqotlarini olib borish;
- Mehmonxona biznesi rivojlangan horijiy mamlakatlar tajribalaridan keng foydalanish;



- Mehmonxonalar va unda ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risida ommaviy axborot vositalarida hamda internet tarmoqlarida yanada ko'proq ma'lumotlar berish va reklama vositalarini kuchaytirish;
- Mehmonxonada zamonaviy axborot tizimidan foydalanishni tashkil etish;
- Hozirgi kun talabidan kelib chiqqan holda sifatli xizmat ko'rsatishni kuchaytirish, inson resurslarini boshqarishni takomillashtirish, bunda malakali hodimlar mehnatiga munosib haq to'lashni ta'minlash, ishchi hodimlarni rag'batlantirish;
- Ishchi hodimlarni uzluksiz ravishda malakasini oshirish uchun horijga jo'natib horij tajribasini o'rganib kelib amaliyotda joriy etish;
- Internet saytlar orqali hozirgi kunda mehmonxona biznesida amalga oshirilayotgan ishlar, xorijiy investorlar uchun ko'plab shart-sharoitlar, imkoniyatlar haqida habardor qilish maqsadida ma'lumotlar joylashtirish zarur.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2014 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni (1999 yil 20 avgust). O‘zbekistonning yangi qonunlari. – T.: Adolat, 2000 y.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni (2012 yil 26 aprel).

### **II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1999 yil 30 iyundagi “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi Farmoni// “Lex.uz”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli Farmoni// “Lex.uz”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi

to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qo'lay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-sonli Farmoni. //“Lex.uz”.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2666-sonli Qarori//“Lex.uz”.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Kirish turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3509-sonli Qarori//“Lex.uz”.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3510-sonli Qarori//“Lex.uz”.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-sonli Qarori//“Lex.uz”.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini barpo etish to'g'risida"gi 210-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 avgustdagi "Sayyohlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi 346-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 2 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesi va xalqaro turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 310-sonli Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Turizm faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 189-sonli Qarori.

#### **IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ma‘ruzalari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi 2017 yil 23 dekabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.

#### **V. Mamlakatimiz va xorijiy olimlarning adabiyotlari**

1. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018 y.

2. Tuxliev N., Abdullaeva T. Formalnosti v sisteme turizma Respubliki Uzbekistan - T: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2007.

3. Tuxliev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.

4. Tuxliev N., Abdullaeva T. Natsionalnie modeli razvitiya turizma –T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.

5. Tuxliev N., Abdullaeva T. Osnovi bezopasnosti v turizme. –T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
6. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 389 b.
7. Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya» 2010 – 263 b.
8. Tuxliyev I.S., Ibadullaev N.E. Turizm operatorlik xizmatini tashkillashtirishning asoslari. O‘quv qo‘llanma. – S.: SamISI, 2011.– 256 b.
9. Hayitboev R., Haydarov S., Abduxamidov S., Daminov M., Xamitov M. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish. O‘quv qo‘llanma. – S.: SamISI, 2016.-176b.
10. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘zbekiston faylafuslar jamiyati» nashriyoti, 2011.-273b.
11. Tuxliyev I.S, Qudratov G‘.H., Turizm iqtisodiyoti. –S.: SamISI, 2007.
12. Tuxliyev I.S., A.V.Bektemirov, Z.I.Usmanova. Turizmda strategik marketing. O‘quv qo‘llanma. – S.: SamISI, 2010 y.- 144 b.
13. Жухова В.В., Римская Т.Г. Туроперейтинг: Учебное пособие. / Римская-Находка: филиал ФГБОУ ВПО «ВГУЭС» в г. Находке, 2014. – 128 с.
14. Ильина Е.Н. Туроперейтинг: организация деятельности. Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2008. – 256 с.
15. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasining “2016 йилда Ўзбекистон Республикасида туризм ва дам олиш ривожланишининг асосий курсаткичлари” nomli statistik byulleteni ma’lumotlari. – Тошкент, 2017 йил
16. Филипповский Е.Е., Шмарова Л.В Экономика и организация гостиничного хозяйства. Учебное пособие.-М.: ФиС, 2006.
17. Dr. Sampad Kumar Swain. Travel Agency and Tour Operations Management/ Dept.of Tourism & Hospitality, Indira Gandhi National Tribal University. Amarkantak. – 2014. – 304 p.
18. Mr. Alan Saffery, Ms. Michelle Morgan, and Mr. Otgonbaatar Tulga. The business of inbound tour operators/ Of the United States Agency for International Development or the United States Government.-2007. – 77 p.

19. Charles A. Goeldner, J.R. Brent Ritchie. Tourism principles, practices, philosophies, New Jersey, John Wiley & Sons, 2012. – 514p.

20. Tuxliyev I.S. va boshqalar. “O‘zbekistonda turizm xizmat bozorini rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy muammolari” nomli monografiya. T.: “Iqtisodiyot” 2012.

21. Safarov B.Sh. Mintaqaviy turizm xizmat bozorining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish // Monografiya. - Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2013. - 150 bet.

22. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. - Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. - 184 bet.

23. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish /dis... i.f.d. Samarqand-2016.

24. Ibadullayev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida)/dis... i.f.n. Samarqand-2010.

25. Raximov Z.O. Turizm destinatsiyalarida strategik rejalashtirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish (Samarqand shahri misolida) /dis... i.f.n. Samarqand-2012.

26. Amriddinova R.S. Mehnat resurslarini boshqarish asosida turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari (Samarqand viloyati turizm korxonalarini misolida) /dis... i.f.n. Samarqand-2012.

27. Alimova M.T. “Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)”. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2017 y.

## **VI. Internet saytlari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

3. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
4. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz) – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti
5. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) – O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
6. [www.review.uz](http://www.review.uz) – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti
7. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
8. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) – biznes axborotlari portali
9. [www.yeurasianews.com](http://www.yeurasianews.com) – Yevro-Osiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Milliy kutubxona portali